

O. HASANBOYEVA, A. NE'MATOVA, M. TUROPOVA

# ODOBNOMA

**3-SINF UCHUN DARSLIK**

*O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

*Qayta ishlangan va to'ldirilgan  
beshinchi nashri*

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2007

*Maslahatchi:* A. XOLBEKOV — falsafa fanlari доктори.

*Taqrizchilar:* N. KARIMOV — filologiya fanlari doktori,  
professor.

I. MIRZAHALILOVA — RTM. Ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'limi bosh metodisti.

## AZIZ O'QUVCHILAR!

Siz — yangi avlod vakili, mustaqil O'zbekistonning kelajagisiz.  
Yuksak ma'naviyatli, barkamol inson bo'lib voyaga yetish uchun  
o'z iste'dodingizni yuzaga chiqaring, ilm o'rganining, odob-axloq bobida  
hammaga o'rnak bo'ling.

Ushbu darslik sahifalaridagi pand-nasihatlar, donolar o'gitlari,  
odob qoidalariiga amal qiling.

Aziz o'quvchilar! Kitobdan asrab-avaylab foydalaning. U sizni  
istiqbol sari yetaklaydi!

### Shartli belgilar:



— Savol



— Dars tugadi



— Topshiriq



— Bilib ol!

ISBN 978-9943-01-050-5


10 33352  
395

© «Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashmasi,  
«Mehnat» nashriyoti, 2003-y.  
© «O'zbekiston» NMIU, 2007-y.

2007/54 Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston M

A5048

# **ISTIQBOLIMIZ VA ISTIQLOLIMIZ ASOSCHISI**



1991-yil 31-avgust kuni Islom Karimov tarixiy voqea — O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. 1-sentabrni «Mustaqillik kuni» sifatida nishonlash haqida qaror qabul qilindi.

Mustaqillik nima? Mustaqillik xalqimizning ixtiyori, erki, haq-huquqi o'z qo'lida, u hech kimga tobe, qaram emas, deganidir. Mus-

taqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizda qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Xalqimizning boy madaniy, ma'naviy merosidan bahra ola boshladik: Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek kabi ajdodlarimizning bizga qoldirgan o'lmas meroslarini o'rganib, ular bilan faxrlana boshladik. Yerlarimiz, bog'-rog'larimiz o'z ega-larini topdi, don mustaqilligiga erishdik, ko'plab yangi turdag'i korxonalarga, jumladan, avtomobil zavodlarimizga ega bo'ldik. Qisqa fursat mobaynida O'zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib oldi, uni yuzdan ortiq mamlakatlar tan oldi. Mana shularning barchasi Prezidentimiz Islom Karimovning oqilona rahbarligi va fidokorona mehnatlari tufayli amalga oshmoqda. U o'zbek xalqining milliy, ma'naviy merosini, qadrini tiklagan zukko, tadbirkor, bilimdon insondir.

Islom Karimov buyuk xizmatlari hamda matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun «O'zbekiston Qahramoni» unvoni, «Mustaqillik» va «Amir Temur» ordenlari bilan taqdirlangan. Shuningdek, u bir qancha xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden-medallari bilan ham mukofotlangan.

Islom Karimov mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini bugungi yoshlar yaratadi, deb ishonch bildirib, ularga g'amxo'rlik qilmoqda. Yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratib, ular-



ning barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

«Biz farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabit etishlari uchun qanot berishimiz kerak», — deydi u. Bilim olish huquqi Konstitutsiyamizning 41-moddasida belgilab berilgan. Unda ko'rsatilishicha, «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi».

Prezidentimizning g'amxo'rligiga javoban yosh iste'dodlar o'zlarini turli sohalarda namoyon etmoqdalar.

Ko'plab iqtidorli yoshlар chet ellarga borib bilim olmoqdalar. Bularning hammasi mustaqillik sharofatidandir.

## ISLOM KARIMOVning ibratli fikrlaridan namunalar

Biz o'zimizni hamisha mustaqil millat — o'zbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz.

\* \* \*

Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi.

\* \* \*

Har bir inson elim deb, yurtim deb, yonib yashashi kerak.

\* \* \*

... Qonun oldida barcha barobar. Mamlakat qonunlariga jami fuqaro — yoshidan, mansabidan, millati, irqi va dinidan qat'iy nazar, barcha barobar bo'ysunmog'i farz.

\* \* \*

... Yoshlarimizning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishiga har tomonlama yordam berish davlatimizning burchidir.

\* \* \*

O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo'lmaydi.



1. Mustaqillik nima? 1-sentabr qanday kun?
2. Siz bu kunni qanday qarshi olasiz?
3. Prezidentimizning qanday orzulari bor?
4. Prezidentimiz biz — yoshlarga qanday g'amxo'rlik qilmoqdalar?
5. I. Karimovning ibratli fikrlarini yodda tuting.



## FAROVONLIK BOZORDAN BOSHLANADI

Qaysi yurtning tuprog'i hosildor, iqlimi yaxshi, eng asosiysi odamlari mehnatkash bo'lsa, o'sha yerda to'kin-sochinlik, farovonlik va fayz bo'ladi.


Qadimdan qolgan bir naql bor: «Yurtning farovonligini, elning kayfiyatini bilishni istasang, bozorga bor».

Yoz va kuzning serbaraka hosili bozorlarimizni to'ldirib, elimiz dasturxonini nozne'matlar bilan bezamoqda. Sharqona bozorlarimizni tomosha qilgan sayyoohlар uning turli-tuman, shirindan shakar meva-chevalarga boyligini ko'rib qoyil qolishmoqda.

O'zbekiston poytaxti — Toshkentda: «Chorsu», «Oloy», «Beshyog'och», «Askiya», «Sergeli», «Farhod», «Qo'yliq» kabi bir-biridan qolishmaydigan bozorlar bor. O'zbekistonning barcha viloyatlarida qadimiy, ko'hna bozorlar qayta ta'mirlanmoqda hamda yangi, ko'rkar bozorlar barpo etilmoqda.

Sotiladigan mahsulot turiga ko'ra bozorlarining dehqon bozori, yoyma bozor, mashina bozori, qurilish mollari bozori kabi turlari bor.

Ota-bobolarimiz sotuvchi va xaridor o'rta-sidagi muomala odobiga alohida e'tibor ber-ganlar. Bu borada Yusuf Xos Hojib bobomiz shunday nasihat qilganlar:



«Savdoda kimki rostgo'y, fe'li to'g'ri bo'lsa, zarur bo'lganda unga mol topilmay qolmaydi».

Kaykovus bobomiz «Qobusnoma» kitobida: «Ey, o'g'lim, bozorda narsa sotmoqchi bo'l-sang, oz foydaga qanoat qil, xaridorlarni o'zingdan uzoqlashtirma, molingning narxini oshirma. Xalq sening oldingga bir narsani olish yoki sotmoq uchun kelsa, shunday xush-muomala, shirinso'z bo'lginki, ular o'z mollariga qimmat narx qo'yishdan sharm qilsinlar. Hamisha to'g'ri so'zla, baxil bo'lma, kam-bag'allarga ehson qil», — deganlar.

Xalq orasida bozor haqida qadim-qadimdan turli naqllar to'qilgan: «Bozorda — boriga baraka», «Bozorga borib, baxtingni sina».

Husayn Voiz Koshifiy bozorga borganda quydagi yetti qoidaga rioya qilish zarurligini ta'kid-laganlar:

1. Hech kimni yelkang bilan turtma.
2. Kishilarning orqasidan tikilib qarama.
3. O'g'zingni ochib anqayib yurma.
4. Birovni uzoqdan baland ovoz bilan chaqirma.
5. Ishing bo'lmasa peshtaxta oldida turma.
6. Xarid qilmaydigan bo'lsang, molning narxini so'rama.
7. Zaruriyat bo'lmasa, oldi-sotdiga aralashma.

Shunday ekan, bozorda turli qo'pol so'zlarni ishlatib, xaridor haqiga xiyonat qilib, tarozidan urib qolish, nopol yo'l tutib, pul qaytimini to'g'ri bermaslik kabi yaramas odatlardan saqlanish lozim.



1. Bozor nima? Bozor turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Bobolarimizning bozor, sotuvchi va xaridor haqidagi o'gitlarini yodda tuting, ularga amal qiling.




## **BOLALIK — BEG'UBORLIK**

### **BOLALIK — BEG'UBORLIK**

Bolalik! Naqadar beg'ubor, sershovqin, qiziquvchanlig-u soddadillikka to'la umr fasli bu. Bolalikni bahor fasliga o'xshatadilar. Haqiqatan ham bolalik o'zining barcha xislatlari bilan bahorni eslatadi. Siz, aziz bolajonlar, hozir umringizning eng go'zal, shirin, beg'ubor faslida yashamoqdasiz. Siz atrofingizda bo'-layotgan barcha narsalarni kuzatib ulgurishga, uni tushunishga, o'rganishga, taqlid qilishga intilasiz. Sizning zavqlanishingiz ham, ranjishtingiz ham juda oson. Biror narsadan xafa bo'lsangiz bormi, tezda ko'zingizga marjondek yosh keladi. Agar ko'nglingizni ko'tarib, tasallli berilsa, yana quyoshdek charaqlab ketasiz. Mana shu xislatlaringiz xuddi bahor havosini eslatadi.


Bolalikni bahorga o'xshatilishining yana boshqa sabablari ham bor. Ya'ni kuzda ko'tariladigan xirmon bahorda sepilgan urug'ga



bog'liq bo'lgani kabi, sizning qanday insonlar bo'lib yetishishingiz, albatta, bolalikda nimalarni o'rganishingiz, qanday odatlarga ega bo'lishingiz, odob-axloqni qay yo'sinda egalashgingizga bog'liqdir. Mana shuning uchun ham sizning eng birinchi vazifangiz otonangizning, el-yurtingizning odobli farzandi bo'lishdir.

«Bola aziz, odobi undan aziz», — deydi dono xalqimiz. Bolalikdan boshlab shirinso'z, atrofdagi kishilarga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish, rostgo'ylikka intilish, o'jarlik qilmaslik kabi odatlarga o'rganib borish lozimdir.

Bolalik orzularga to'la davr: bolalar «Katta bo'lsam baland binolar quraman», «Uchuvchi, kosmonavt, san'atkor, yozuvchi bo'laman», «Hammaga yaxshilik qilishni istayman» deb orzu qiladilar.



## ORZU

Issiq yoz kunlari edi. Yetti yashar Baxtiyor dadasi bilan tog'asinikiga ketayotgan edi. Yo'l-da ular juda chanqashdi. Dadasi mashinasini to'xtatdi. Choyxonaga kirishdi. Choyxona anhor yoqasida joylashgan bo'lib, nariroqda katta ko'prik qurilayotgan edi. Baxtiyor choy sovi-guncha o'sha yoqdan ko'zini olmay, tomosha qilib o'tirdi: buldozer olamni buzgudek gul-durar, katta samosvallar beton keltirib ag'-darardi. Yuk ko'taruvchi kranlar uzun-uzun to'sinlarni ko'tarib, anhorga tiklangan sement ustunlar ustiga yotqizardi. Bir-ikki kishi chap

qo'llaridagi qora ko'zoynakli, xokandozsimon narsani yuzlariga tutib, o'ng qo'llaridagi elektr simlariga ulangan narsani temirlarga tekkizar, undan chars-chars ovoz chiqib, atrofga uchqun sachrar edi.

Baxtiyor juda qiziqib qoldi. Dadasiga yuzlanib:

- Ular nima qilishyapti? — dedi.
- Ko'prik qurishyapti.
- Odamlar anhordan o'tishi uchunmi?
- Ha. Odamlar ham o'tadi. Avtomobillar ham, ot-aravalar ham o'taveradi.
- Katta bo'lganimda men ham ko'prik quraman.

— Qayerga qurasan, o'g'lim?  
— Qishlog'imizga, hovlimizning yaqinidan o'tgan anhorga.

Dadasi miyig'ida kuldii.

— Seni qara-yu, u anhor emas, ariqcha-ku! Qo'zichoq yursa, suvi to'pig'iga chiqmaydi.

Baxtiyor ham bo'sh kelmadii.

- Dada, men katta bo'lamanmi?
- Albatta, katta bo'lasan, o'g'lim.
- Qo'zichoq-chi?
- U ham katta bo'ladi.
- Arig'imiz ham katta bo'ladi. O'sib anhor bo'lganda ko'prik quraveraman.

— Qurasan, o'g'lim, qurasan, — dedi dadasi zavq bilan kulib.

Baxtiyorning beg'ubor bolalik orzulariga dadasi ham qo'shildi.

## BOLA BOSHDAN, O'G'LON YOSHIDAN

Go'dak chog'ingdan onangga qarash,  
Timmas, mehnatkash dadangga qarash.  
Ular ish qilsa, baqrayib turma,  
Buyursalar ish, o'grayib yurma!  
O'ynoqi, o'tkir ko'zingni ishlat,  
Qaynoqi zehning — fikringni ishlat.  
Chehrang hamisha yashnasin guldek,  
Bilmayman degan so'zni sen unut.  
Ko'ngling doimo osmondek keng tut!  
Har ishga boshdan o'rganmoq kerak!  
Har ishga yoshdan o'rganmoq kerak!



1. Bolalik qanday davr?
2. Bolalikni nima uchun bahor fasliga qiyoslashadi?
3. Bolalik — beg'uborlik, deganda nimani tushundingiz?
4. Baxtiyorning orzusiga o'xshagan orzularingiz bormi?
5. O'zingizda axloq-odobga zid qanday kamchiliklar bor?
6. Quddus Muhammadiyning «Bola boshidan, o'g'lom yoshidan» she'rini yod oling.



## KEKSALIK — DONOLIK

Haqiqatan ham, keksalar juda dono bo'lishadi. Chunki ular o'z umrlari davomida ko'p narsalarni ko'rib-bilib, kerakli xulosalar chiqaradilar. Xalqimiz keksalarni e'zozlab: «Qarisi bor uyning — farishtasi bor» yoki «Qari bilganni — pari bilmas» maqollarini yaratgan. Bu maqollarda chuqur ma'no bor: qariyalar bor uy fayzli bo'ladi, chunki ular yoshlarga yo'il-yo'riq ko'rsatib, to'g'ri yo'lga boshlaydilar. Ularning ibratlari va nasihatlariga amal qilsangiz xonadoningiz nurga to'ladi.

Otaxon shoirimiz Quddus Muhammadiy «Aziz bobom» she'rida qariyalarni:

Bir aziz bobom bor dunyoda tanho,  
Xushtabiat, xushqomat, muloyim, dono,  
Ko'nglining kengligi yer, kurra, osmon.  
Ko'zлari nuroni y oynai jahon,

deb maqtaganlar.

Inson hayoti bamisolay aylanguvchi charxpalakka o'xshaydi. U — bugun bola, so'ngra ulg'ayib ota-onas, keyin esa bobo, buvi bo'ladi. Buvilik, bobolik baxtiga tuyassar bo'lganlar farzand va nabiralarini mehr-muhabbat bilan tarbiyalab, voyaga yetkazadilar.

Shuning uchun ham biz keksalarni doim e'zozlashimiz lozim. Prezidentimiz 2002-yilni «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilganlari bejiz emas.



## BUVIJONIM

Sanobarning buvisi yumshoq tabiatga ega. Sanobar va singlisi buvijonlarining aytgan gapini ikki qilmaydilar, buyurgan ishini «Xo'p bo'ladi», deb darrov bajarib qo'yadilar.

Sanobar so'rida buvijonisiga sochlarini mayda qilib o'rdirib bo'lgach, ularga qarab:

— Buvijon, biz katta bo'lib nima qilsak, siz va bobom bizdan xursand bo'lasizlar? — deb so'radi.

Buvijonisi uni erkalab:

— Jon bolalarim, eng yaxshisi — qariyalarga shirinso'z, xushmuomala bo'ling, qo'lingizdan kelgancha ularga ko'maklashing. Ular sizni ortiqcha koyisalar ham ko'nglingizga olmang,

ularni xafa qilmang va baland ovozda gapirmang. Ana shundagina siz bizni rozi qilgan bo'lasiz, — deb nasihat qildi. So'ng so'zida davom etdi.

— Lekin farzandlik burchi, vazifalarini unutib, ota-onasining, buva va buvijonlarining gaplariga qulq solmay, nasihatlariga amal qilmay beodoblik qilib yurgan tengdoshlaringiz borligini ko'rib, ba'zida juda xafa bo'laman.

Qizlarimiz milliy kiyimlarimizni mensimay, kalla yubka, yengsiz ko'yylaklar, o'g'il bolacha kiyimlar kiyib yursalar, o'g'il bolalarimiz sochini o'stirib olsa, ustozlarini hurmat qilmasa, aka-uka, opa-singillar arzimas narsani talashib, urishib yursalar, har xil haqoratli so'zlarni ishlatib, andishasizlik qilsalar oqibati nima bo'ladi?

Sanobar va singlisi bu gaplarni eshitib bir oz jim bo'lib qoldilar. Bunday tengdoshlari borligidan buvijonisi oldida hijolat bo'ldilar. Buvisining yuzi va ovozidagi o'zgarish ularga ham ta'sir qilgan edi.

Qani aziz bolajonlar, Sanobar va singlisi o'rnila bo'lganiningizda buvijoningizni nima deb ko'nglini ko'targan bo'lar edingiz?



1. Nima uchun keksalik — donolik deyiladi?
2. Siz qariyalar oldidagi burchingizni bajaryapsizmi?
3. Qariyalar oldidagi burchlaringiz nimalardan iborat ekan?



## Quyidagilarga amal qiling!



- qariyalarga yordam qo‘lini cho‘zing;
- bemorlarga g‘amxo‘rlik qiling;
- qariyalarning nasihatlariga amal qiling.

## ADHAM BOBO NASIHATLARI

Kunlardan bir kun Adham bobo atrofiga bolaranni to‘plab, ularga qarab:

— Nabiralarim, hayotda baxtli bo‘lay desangiz yaxshilarga ergashing, ulardan ibrat oling. Zinhor yomonlarga yaqinlashmang, ularning kasofatiga qolib, so‘ngra «attang» deb yur-mang,—deb nasihat qildi.


Shunda Oqiljon:

— Bobojon, eng yahshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima? — deb so‘radi

Bobosi javob berdi:

— Dunyoda inson uchun eng yahshi narsa go‘zal xulqli bo‘lib, shu go‘zal fazilatlar bilan nom chiqarishdir. Eng yomon narsa odobsizlik, tarbiyasizlik va yalqovlik oqibatida odamlar orasida hurmatsiz bo‘lishdir. Shuning uchun quyidagi fazilatga amal qilsangiz saodatli bo‘lasiz:

1. Hamma vaqt chiroyli muomala qiling.
2. To‘g‘rilikni o‘zingizga shior qiling.



3. Qarindosh-urug', do'st va boshqalarga marhamatli, shafoatli bo'ling.
4. Yahshilikka yahshilik bilan javob bering.
5. Yomonlikdan, baxillikdan qoching.
6. Qo'shnilar bilan inoqlikda yashang.
7. Befoyda so'zlarni ko'p so'zlamang.
8. Har narsaga jahlingiz chiqmasin.

## **DONOLIK VA KAMTARLIK HAQIDA MAQOLLAR**

Dono aytsa el aytgani,  
Elning g'amin yeb aytgani.

Aqlning o'lchovi — idrok.

Kamtarga kamol,  
Manmanga — zavol.

Aqli tiyrak qand yeydi,  
Aqli kalta pand yeydi.



1. Kattalarni nima uchun hurmat qilamiz?
2. Qariyalarni hurmat qilish to'g'risida qanday xalq maqollarini bilasiz?
3. Adham bobo nasihatlariga amal qiling.
4. Bobo va bivingizdan eshitgan hikmatli so'zlar, ertaklarda uchragan odobga doir gaplarni daftaringizga yozing va ma'nosini bilib oling.



## **TEJAMKORLIK — YAXSHI FAZILAT**

### **TEJOG'LIK ISH — BEJOG'LIK**

Inson hayotida ro'zg'or, uy-joy tutishda tejamkorlik, ya'ni isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, reja bilan ish tutish katta ahamiyatga egadir. Dono xalqimiz «Tejog'lik ish — bejog'lik» deb bejiz aytmagan. Tejamkorlik — insonning ma'nnaviyatini boyitadi, oilasiga qut-baraka olib keladi. Tejamkorlikka kichiklikdan o'rgatiladi.

Ahmadjonlar oilasida nonushtadan so'ng, otasi Akrom aka: «Qani o'ylab ko'raylik-chi, bugun sizlar nonushtada baham ko'rghan narsalar qayerdan kelib qoldi? Oyijoningiz bugun ertalab dasturxonga qo'ygan ne'matlar: non, sut, sariyog', tuxum qayerdan olinadi va qanday tayyorlanadi? Choy qaynatish, ovqat pishirishda foydalilaniladigan gaz qayerdan olinadi? Burchakda turgan sovitkich elektr tokisiz ishlamaydi. Elektr toki qayerdan keladi?» — deb so'radi. So'ngra davom etib:

— Biz bularni qadrlab, tejab ishlatishimiz kerak, — dedi Akrom aka, — insonlar yaratgan

hamma narsalardan tejab foydalanishni o'r-gansak, shunda oilamiz, davlatimiz boyiydi.

Tejash — bu narsalarni isrof qilmaslik, uni qadrlash, har bir buyumni o'z me'yorida ishlata bilish demakdir.

Ajdodlarimiz tejamli oilalarning barakali, to'kis, dasturxoni to'kin bo'lishini bashorat qilishgan.

Tejamkorlik — avvalo, xalqning va o'zining mehnatini qadrlash, qanoatli bo'lish, faqat buganni emas, ertani ham o'ylash, tadbirkor bo'lishdir. Tejamkorlik — yaxshi, isrofgarchilik yomondir.

Davlatimiz, oilamiz boy bo'lsin desangiz har bir narsadan oqilona, isrof qilmay foydalanishga odatlaning.

Tejamkor topgan daromadidan reja asosida foydalanganligi uchun boyib, mol-u mulkka ega bo'ladi. Lekin tejayman deb o'ta xasislikka berilish ham yaramaydi.

## HIKOYAT

Basra shahrida bir xasis kishi bor edi. U ochko'zlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidan ketgan edi. Hotami Toy saxovat va karam ko'rsatishda qancha nom qozongan bo'lsa, u boylik yig'ishda undan ham mashhurroq edi. Ushbu xasis va ochko'z kishi ko'p mashaqqat chekib, bitta-bittalab oltin yig'ar edi. U katta bir xazina to'plagach, ularni yer



tagiga ko'mdi. Bu ochko'z yana shunga teng keladigan boylikni to'ni etagiga gir aylantirib tikib olgan edi. Yashirilgan behisob oltinlar o'sha kishining ko'ziga hatto kunduz kunlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko'rinar edi. U o'zicha, tanimga quvvat, tanimga quvvatgina emas, balki jonimga sihat ham ana shu oltinlarim tufayli, deb o'ylardi.

Tejamkor bo'laman deb boylik yig'ishga berilmang, uning oxiri voy bo'ladi.

Ittifoqo, bir kuni u savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdodan tushgan pullariga taom olib yedi. Shundan so'ng, qo'lini yuvmoqchi bo'lib daryo labiga engashdi.

Ammo, to'ni etagiga tikkan oltinlari og'irlik qilib, uni suvgaga tortib ketdi. Xasis kishi ana shu yomon fe'li tufayli daryoga cho'ka boshladidi. U suvdan chiqmoqchi bo'lib, ayyuhannos solib chunon baqirar, birov kelib qutqarishidan umidvor edi. Ammo, u odamlar yordamga yetib kelgunga qadar daryo tubiga cho'kib bo'ldi. Chunki, uning oltin tangalari behad og'ir edi.

Uning joniga ofat yetkazgan narsa, albatta, o'zi yig'gan boylik edi. Shuningdek, uning yashirib qo'ygan xazinasi ham talon-taroj bo'ldi. Xasislik bilan oltin-kumush yig'ish o'z egasini shunday mudhish oqibatga olib keladi.



1. Tejamkorlik nima? Xasislik-chi?
2. Boylik to'plash maqsadida xasislik qilish nimaga olib kelar ekan?
3. Tejamkorlik haqidagi maqol va hadislardan topib yod oling, kelgusi darsda uni tu-shunib olishga harakat qiling.



Oz bo'lsa-da berilgan ne'matning shukrini ado qilib yurganining, ko'pga shukr qilmagandan afzaldir. (*Hadisdan*)

## ISROFGARCHILIK — YOMON ILLAT

Isrofgarchilik — pul, mol va ne'matlarni keragidan ortiqcha ishlatalish, nobud qilish, o'rinsiz yoki ortiqcha sarflashdir.

Isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, rejalilik har bir oilaga qut-baraka, to'kinlik olib keladi. Isrofgarchilikning oxiri esa nochorlik, xorlikdir.

Oilada har bir narsaning o'z o'rni bor. Topgan-tutgan narsalarni o'z o'rnida ishlatish lozim. Ularni isrof qilishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ota-onaning mehnati bilan oila uchun keltirilgan oziq-ovqatlar, kiyim-boshlarni asrash kerak.

Ota-onaning mablag'iga olingan maktab o'quv qurollari (daftar, qalam, kitob, ruchka va boshqalar)ni ehtiyyot qilish, kerakligini ishlatish, ozgina ishlatib tashlamaslik lozim. Chunki bu ham — isrof. Bir kishiga bir necha ko'ylik, kastum yoki oyoq kiyim yetarli, u juda ko'p kiyimlarni olib qadriga yetmasa, bu ham isrof hisoblanadi.

Ovqatni oxirigacha yemasdan qoldirish, ko'chama-ko'cha yurib vaqt ni behuda sarf qilish odobdan emas. Vaqt ni tejash, uni foydali o'tkazish kerak.



**Hissa:** Yemoq, ichmoqqa, kiyinmoqqa, uy-ro'zg'orga kerakli narsalarni isrof qilmaslikka odatlanmoq yaxshidir.

Bo'sh vaqt ni foydali o'tkazmaslik o'zingiz uchun zarardir.

## HIKOYAT

Aytishlaricha, bir badavlat kishining yakka-yu yagona o'g'li bo'lib, u nihoyatda isrofgar va behuda sarflovchi edi.

Ota o'z o'g'lining noqobil ekanini bilgani uchun oldindan chora ko'rib, o'lar paytida unga nasihat qilib dedi:

— Ey o'g'lim, men o'lganimdan keyin boylik-larimning bari senga qoladi. Ishonchim komilki, sen ularning barini behuda sarflab bitirasan. Buning oqibatida qo'lingda hech narsa qolmay, ochlik va nochorlikka tushib qolasan.

Ota shu gaplarni aytib olamdan o'tibdi. Noqobil o'g'il ko'p o'tmay, barcha pullarni sarflab tamomladi. Puli bor chog'ida ulfat bo'lganlar endi undan yuz o'girdilar. Ishlarini yurgizay desa nodonligi tufayli bor pulinisovurgan edi. U och, yalang'och, xor bo'lib qoldi. Shundan so'ng otasidan qolgan birgina hovlini buzib, yog'ochlarini sotmoqchi boldi. Tom to'sinini buzayotganda otasi ataylab o'g'li uchun berkitib ketgan boyliklar yerga tushdi.

Qiyinchilik va azoblarni ko'rghan o'g'il topilgan pulni isrof qilmay ishlatishga qaror qildi.



1. Isrof nima?
2. O'zingiz ham isrofgarchilikka yo'l qo'yganmisiz?

3. Hikoyadagi o'g'il o'rnida bo'lganingizda siz qanday yo'l tutgan bo'lardindiz?
4. Yuqoridagi hikoyani o'zingiz davom etting.
5. Isrofgarchilikning oqibatlarini ayting.



## NONNI ISROF QILMASLIK ODOBDANDIR

Har bir narsaning uvoli bor. Barcha noz-u ne'matlar, kiyim-kechaklar, asbob-uskunalarining qadriga yetib, o'z me'yorida ishlatish ham odobdandir.

Insoniyat uchun barcha noz-ne'matlarning azizi nondir. Nonning turlari juda ko'p va xilmashil: patir, shirmoy, kulcha va boshqalar.

Non! Naqadar aziz ne'mat. Chunki u insonning yashashi uchun suv va havodek zarur. Xalqimiz nonni qadim-qadimdan ulug'lab, ko'ziga surtishga, nonning uvog'ini ham yerga tushirmaslikka odatlangan.

Non shunday sehrli narsaki, u bemorlarni tuzatgan, yo'lda hamroh bo'lgan. Non das turxon ko'rki, oila qut-barakasi, xalq farovonligi belgisidir. Shuning uchun ham doimo uni qadrlab, hech qachon uvol va isrof qilmaslik lozim.

## NON SEHRI

(rivoyat)

Samarqandda Ali degan kambag'al me'mor bo'lgan ekan. U bir-biridan go'zal imoratlar qurar ekan-u usti kiyimga yolchimas, qorni nonga to'ymas ekan. Kunlardan bir kuni Ali qattiq kasalga chalinib qolibdi.

Tabiblardan biri Alini o'zi qurgan tomga olib chiqishni maslahat beribdi. U yerda yotsa, balki dardiga davo topar, debdi. Alining do'stlari uni o'zi qurgan tomga olib chiqib qo'yishibdi. Ali u yerda kunduzi osmon bilan kunga, kechasi oy bilan yulduzlarga qarab yotaveribdi.

Kunlardan bir kun shaharga qaroqchi-o'g'-rilar bostirib kelishibdi. Shu shaharlik bir kosib husn-jamolda tengi yo'q Ma'rifat ismli qizini ulardan yashirib, tomga olib chiqib qo'yibdi. Tomda kasal yotgan Alining dimog'iga yoqimli hid kirib, o'zini ancha-muncha yengil his qila boshlabdi. Buning sababi, Ma'rifat o'zi bilan olib chiqqan qopga onasi yopgan Samarqand nonidan solingan ekan. Qiz Aliga nondan beribdi. Uni yegan Alining kuchiga kuch qo'-shilib, kasali ham tuzala boshlabdi. Bu orada shahar qaroqchi-o'g'rillardan ham xalos bo'-libdi. Keyin Ali ham, Ma'rifat ham tomdan tushishibdi. Ular to'y qilib, oila qurishibdi. Ali qaytadan kuch-quvvatga kirib, yangidan-yangi, go'zal, chiroyli binolar quraveribdi. Ma'rifat

bo'lsa bir-biridan chiroyli, shirin nonlar yopib, ro'zg'orini butlabdi. Alining bir-biridan yaxshi binolarining dong'i olamga tarqalgan bo'lsa, Ma'rifatning bir-biridan serta'm, mazali nonlarining dong'i yetti iqlimga ketibdi. Shunday qilib, Samarqand nonining sehrli kuchi ikki yoshga tinch-totuv hayot ato etib, murod-maqsadga yetkazibdi.

(«Asotirlar va rivoyatlar»dan)



**Hissa:** Non — farovonlik keltiradi. Nonsiz hayot kechirib bo'lmaydi. Uni uvol va isrof qilmay ishlatish odob-dandir.

Bilib ol:

Nonni isrof qilmaslik uchun:

- uni har qaerda qoldirmang;
- yerga tushib ketgan non ushog'ini bosmang;
- non bo'laklarini chiqindilarga aralash-tirmang;
- keragidan ortiqcha non ushatmang;
- ortgan nonni quritib saqlang.

## BARKASH NON

To'lqinjonning sho'xligi  
Haddidan oshib ketdi.  
Anhorning to'lqiniday  
Pishqirib toshib ketdi.  
O'Itirib choy ichishga  
O'yindan qo'li tegmas,  
Ota-onas so'zini  
Nazar-pisandga ilmas.  
O'ynab yurib non yeysi  
Yerga to'kib uvog'in ...  
Bir kun To'lqin ko'chada  
O'ynar edi kavshab non,  
Yeb tugatmay parchasin  
Irg'itdi kesaksimon.  
Non burda yerga tushib  
Qorishdi chang-tuproqqa.  
O'tkinchi bosib yanchar,  
O'tsa u yoq-bu yoqqa.  
Shunda bir bola dedi,  
Kuyib-pishib, achinib:  
— To'lqin, nima qilganing  
Nonni kesakdek otib?..  
To'lqin deydi: — Ne bo'pti  
Yerga tushsa parcha non.  
Yeyishga topiladi  
Dadamlar bo'lsa omon.  
Ushoqlarga jon kirdi:


«Egamiz qayoqda» deb  
Hamma ushoq baqirdi.  
Non bolasi — non ushoq,  
Ayting, axir, nonmasmi?  
Deyishdi-yu ushoqlar  
Otilib chiqdi yerdan.  
Hammalari qo'shilib,  
Katta non bo'ldi birdan.  
Bunaqa barkash nonni  
Hech qachon ko'rmanmiz.  
Hanuz o'sha barkash non,  
To'lqin ko'zi oldida.  
Uning oydek savlati  
Ketmas, doim yodida.

## NONNI E'ZOZLASH

Mashhur olim va podshoh Ulug'bek Mirzo kunlardan bir kun o'z amaldorlari bilan safarga ketayotgan ekan.

Ulug'bekning nigohi yo'l yoqasida yotgan non burdasiga tushadi va u darrov otdan tushib, nonni olib qo'yniga soladi. Vazir: «Nega bizga buyurmay, o'zingiz otdan tushdingiz?» — deb so'raydi. Ulug'bek: «Nonni dastlab men ko'rdim, uni yerdan olishni birovga buyurish nonga nisbatan hurmatsizlik bo'lardi», — deb javob bergen ekan.

Darhaqiqat, xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, uni hamma narsadan afzal, aziz deb



biladi. Uдум va an'analaramizga биноан hatto nonni dasturxonga teskari qo'y-maydilar, uning ustiga boshqa narsa qo'yish mumkin emas. Nonning ustidan hatlab o'tish gunoh sanaladi. Bularning barchasi nonni e'zozlash, isrof etmaslikdan kelib chiqqan yaxshi odatlardir.

## NON HAQIDA MAQOLLAR

Nonning uvog'i ham non.

Bir boshoq don —  
Bir savat non.

Don ayagan donga yetar,  
Non ayagan — nonga.



1. Nonni nima uchun ko'zga surtamiz? Buni siz qanday tushunasiz?
2. Nonning sehrli kuchi nimada ekan?
3. Non haqida qanday hikoya, she'r, rivoyatlar bilasiz?
4. «Barkash non» she'rini yod oling.



## **MEHNATDAN KELSA BOYLIK, TURMUSH BO'LAR CHIROYLIK**

### **MEHNATSEVARLIK — BEBAHO FAZILAT**

Mehnatsevarlik kundalik hayotni chiroyli farovon, unimli o'tkazish uchun insonga quvonch va shodlik bag'ishlaydigan fazilatdir. Biz tinxmay o'qib-o'rganib yaxshi baholarga ega bo'lsak, ota-onamizga uy-ro'zg'or ishlarida yordam bersak, har bir ishni chidam, sabr bilan bajarsak, u bizga quvonch keltiradi. Mehnat samarasini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki uning zamirida haqiqiy peshona teri yotadi. Ana shu harakat insonga baxt-saodat, omad keltiradi. Shuning uchun ham xalqimiz «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik», — deydi. O'z halol mehnati bilan topilgan boylik ezgulik keltirib, farovon hayotga yetaklaydi.

Mehnatni sevib, uni yurakdan bajargan shaxs mehnatsevar hisoblanadi.

Mehnatni sevmaydigan, dangasa, ishyoqmas odamlar aziz umrlarini bekor o'tkazadilar. Ularning hayoti doimo uyqu, bekorchilik va qiyin-

chilikda o'tadi. Mehnatni sevib, ota-onasiga yordam beradigan o'g'il-qizlar har doim baxtsaodatga erishadilar.

Parizod Muhammadiyorova

## NIGORA

(hikoya)

Nigoraning oyisi ishga kechikaman, deb shoshilib ketdi, idish-tovoqlar yuvuqsiz qoldi.

Nigora maktabdan kelib qarasa, hammayoq yoyilib yotibdi. U idishlarni sindirib qo'y may deb qo'rqb, ehtiyot qilib yig'ishtirdi. Yuvuqsiz idish-tovoqlar anchagina ekan, qarang, butun stol usti to'lib ketdi. Keyin u sochiqni olib, idishlarni arta boshladи. Shunda bir piyola qo'lidan «taq» etib tushib ketdi. Nigora qo'rqqanidan «Voy!» deb ko'zini chirt yumib oldi. «Sindirib qo'ydim!» dedi o'ziga-o'zi. Keyin ko'zini sal ochib qarasa, piyola stolda yonboshlab yotibdi. Qo'lini uzatib, piyolani olgani botinmay turdi. Keyin olib ko'rsa, butun ekan. Sevinganidan yuragi dukillab ketdi: «Sinmabdi!» U yana ishini davom ettirdi.

Nigora idishlarni yaxshilab arta boshladи. Artib bo'lib, ustma-ust taxlab qo'ydi. Sochiqni olib, endi ularning ustiga yopayotgan edi, eshikdan oyisi kirib keldi.

Kursida tippa-tik turgan qizini ko'rib, uning jahli chiqqandek bo'ldi.



— Nima qilib turibsan? — deb hayron bo'lib so'radi u qizidan.

Nigora indamay, hadeb qo'lini fartugiga artib: «So'ramasdan qilganimga urisharmikinlar-a?» deb o'ylab turardi.

Oyisi stol oldiga kelib sochiqni ko'tardi. Top-toza yuvib qo'yilgan idish-tovoqlarni ko'rib, yuzi yorishib ketdi.


Shunda Nigora:

— Men yuvib qo'ydim, oyi! — dedi sevinib. Oyisi yana ham xursand bo'lib ketdi.

— Voy oppoq qizim-ey, oyingga qarashibsan-da, — dedi. Keyin qizining yuzidan o'pdi-da, kursidan yerga tushirib qo'ydi. So'ng shoshib-pishib ovqatga unnab ketdi.

Avval akasi mакtabдан qaytdi. Keyin uyga dadasi kirib keldi. U kiyimini almashtirib, endi qo'lini yuvgan edi, oyisi bir lagan oshni dastur-xonga keltirib qo'ydi.

— Kelinglar, ovqat sovib qoladi.



— Bugun ovqat barvaqt pishibdimi? — deb so'radi dadasi.

— Ishdan kelsam, qizingiz idish-tovoqlarni yuvib qo'yibdi, tezda ovqatga unnab ketdim, — dedi jilmayib oyisi.

— Barakalla, ona qizim, qani-qani, bir achenlashaylik, — deb dadasi qizini quchoqlab, peshonasidan o'pdi-da, stol yonidagi kursiga o'tqazib qo'ydi.

Hamma ovqatga o'tirdi. Belini ushlab inqillab-sinqillab, narigi uydan buvisi ham chiqdi.

— Bugun osh mazali bo'libdi, — dedi dadasi, oshni ishtaha bilan yer ekan.

Nigora oshdan ozgina yeb ko'rgan edi, rostdan ham juda-juda shirin ekan. Hamma xursand bo'lganidan keyin ovqat ham shirin tuyuladi-da!

Demak, farzandlar ota-onalariga uy yumushlarida, dala, poliz ishlarida yordam berishlari, buvi va bobolari buyurgan ishlarini bajarishlari lozim. Asta-sekin kasb-hunar egallash kerak. Ilm ham mehnatdir. Uni astoydil egallash lozim.



1. Hikoya asosida siz o'zingizning ro'zg'or ishlaridagi yumushlaringiz haqida so'zlab bering.



## MEHNAT — MEHNATNING TAGI ROHAT

Mehnat inson hayotini bezaydi, unga baxt-saodat keltiradi, boylik, farovonlik baxsh etadi. Qadim-qadimdan mehnat inson hayotining mazmuniga aylangan. Insonlarning obro'-e'tiborli bo'lishi halol mehnat orqasidandir. Halol mehnat insonga zavq-shavq, rohat baxsh etadi, insonni ulug'laydi. Shuning uchun ham «Mehnat — mehnatning tagi rohat», deyiladi. Bu naqlga amal qilgan ota-bobolarimiz o'g'il-qizlarini juda yoshlik chog'idanoq mehnat-sevarlikka o'rgatganlar.

Mehnatning katta-kichigi bo'lmaydi. Muhimi, uni oxiriga yetkazish. Mehnat kishidan sabr-bardosh, intizom talab etadi. Boshlagan ishni oxiriga yetkazish uchun inson irodali bo'lishi, sabr-toqat bilan uni chiroyli, tartibli qilib bajarishi lozim. Ana shunda u qilgan mehnatidan rohatlanadi.

## SOY SUVI HAQIDA ERTAK

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. U boyning zulmidan qochib, bola-chaqasi bilan tog'ning etagiga kelib joylashibdi. Tog'ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan esa sharqirab suv oqar ekan. Dehqon darrov to'rt tanobcha yerni haydabdi, soydan suv olib sug'orib, ekin ekibdi. Keyin esa tog'dagi daraxtlarni kesib, uy quribdi. Hovli tevaragini chetan devor bilan o'rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi.

Shu orada bir yil o'tibdi.

Kelasi bahorda dehqon yerini haydab, sug'ormoqchi bo'lgan ekan, qarasa, soyda suv yo'q emish.

— Ey soy, menga suv ber, ekinimni sug'oray, — debdi dehqon soyga.

— Men suvni senga qayerdan olib beraman? Yaxshisi, yomg'ir va qordan so'ra, — javob qilibdi soy.

Dehqon yomg'irdan suv so'ragan ekan, u shunday deb javob beribdi:

— Ey, odam! Mening suvimi nima bo'lardi? Bir sharillab tushadi-yu, tezda oqadi-ketadi. Soyga hayqirib oqadigan suvni qor beradi. Sen qorning oldiga bor!

Dehqon qorning oldiga boribdi.

— Ey qor! — debdi. — Sen soyga suv ber. Men ekinimni sug'oray.

Bu gapni eshitib qorning achchig'i kelibdi. Qoshlarini chimirib shunday debdi:

— Yomg'ir ham, men ham bu yil me'yorida yog'dik. Lekin namni saqlab turadigan daraxtlarni o'zing kesib ketding. Daraxt bo'lmasa, qishda yog'gan qor bahorda erib, oqib ketadi. Soyga suv kelmaganiga o'zing aybdorsan.

Dehqon o'ylab turib, qorning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Keyin uyiga qaytibdi-da, bir talay ko'chat keltirib, tog'ga ekib tashlabdi. Ular tez o'sib, katta-katta daraxtlarga aylanibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo'yи suv oqadigan bo'libdi. Dehqon esa xohlagan paytda ekinini sug'orib, bola-chaqasi bilan yaxshi hayot kechiribdi.

Abdulla Avloniy

## BOLARIILA PASHSHA

Bir pashsha qir tarafdan uchub kelayotgan Arini ko'rib:

«Do'stim, qaydan kelursan? — dedi. Ari: «Qirdan kelurman. Biroz bol yig'dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim», — dedi. Pashsha: «Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan! Nima bo'lurki, san ham man kabi rohatda yashasang. Chunki mening yashamog'imda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tarafidan hozirlangan das-turxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib umr o'tkarurman. Ba'zi vaqtarda sani yasagan bolingdan ham to'ygunimcha yerman. Mana!

Yashamoq mana! Umr kechirmoq uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'lurmu? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor», dedi. Ari bu so'zlarga javoban dediki:

«Oh, do'stim! Bu sani turmushing o'z bosningdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu!

Insonlar sani supradan quvarlar, ururlar, o'ldirurlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkazursan. Oxirda bir o'rgumchak luqmasi bo'lmakdan boshqa bir narsaga yaramassan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarini yoritar. Bolim dunyoning hamma yerinda maqbuldir. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shu sababli insonlar mani o'zlari tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar, qo'y, birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashib tururga vaqtim yo'q», deb uchub ketdi.



**Hissa:** Mehnatning oxiri rohat, yalqovlikning oxiri xorlikdur.



1. Soy suvi haqidagi ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Pashshaning o'z hayoti haqida maqtanib aytganlarini siz to'g'ri deb bilasizmi?
3. Arining: «Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu», deganini qanday tushunasiz?
4. Qanday mehnatkash insonlarni bilasiz? Ular haqida ijodiy ish tayyorlang.



## HUNAR — TUGANMAS JAVOHIR

Darhaqiqat, bobomiz Abduqodir Bedil:

«Insonning qimmati emas sim-u zar,  
Insonning qimmati ilm ham hunar», —

degan edilar.

Insonlar kiyimlari bilan emas, o'zlarining ilm-hunarlari, qilgan amallari bilan qadr-qimmat topadilar. Hunarning umri uzoq, u o'Imas mo'jizadir, u tiganmas boylik — javohir, chunki u avloddan-avlodga o'tadi. Hunar tufayli barcha orzu-umidlarga erishish mumkin. Shuning uchun har bir kishi hunar o'rganmog'i lozim.

Mehnatsevar o'zbek xalqi «Hunar—hunardan unar», «Hunar—tiganmas boylik», deydi. Bu hikmatlar barchani kasb-korli, hunarli bo'lishga undaydi.

**Hikmat.** Har kimning zari bo'Imasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech qachon xorlik ko'rmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i kerak. Hunarsiz kishi quruq savlatdir. Quruq savlat qotib turgan suratga o'xshaydi. Sen suratga boq, u odamga o'xshasa-da, joni bo'lmaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, kiyikning shoxlaridan nima farqi bor. Qalam garchi cho'p bo'lsa-da, ilm-u hunarni insho qilgani uchun azizdir.

Behunar odam emas, mol-u zari bo'lganda ham, Bo'Imagay eshak odam, anga libos yopganda ham.

(Muhammad Javhar Zamindor)

Yuqoridagi hikmat «Hunarli kishi xor bo'lmas»ligiga ishoradir. Hunar turlari juda ko'pligi bilan birga, u aynan o'g'il va qiz bolalarga xos xillari mavjudligi bilan ham e'tiborlidir. Duradgorlik, etikdo'zlik, zargarlik kabi hunar turlari o'g'il bolalarga mos bo'lsa, kashtachilik, tikuvchilik, do'ppichilik, gilamdo'zlik kabi hunar xillari qizlarga mosdir. Ularni puxta egallash lozim. Hunarmandlarning ham o'ziga xos odob me'yorlari bor. Quyida ana shu haqda so'z yuritiladi.

Husayn Voiz Koshifiy

## **HUNARMANDLAR O'ZLARINI QANDAY TUTISHLARI HAQIDA**

Sendan hunarmandlar o'rtasida nechta odob qoidasi bor, deb so'rasalar, shunday javob ber, deb nasihat qilganlar (donishmandlar). Hunarmandlar:

**birinchi:** hunarni boylik orttirish manbayi deb emas, balki hayotda munosib o'rinnegallash maqsadida o'rganadilar;

**ikkinchi:** o'z ishining ustalariga doimo hurmat va ehtiromda bo'ladilar;

**uchinchi:** ishda kamchilikka yo'l qo'y-maydilar va tanlagan kasblariga befarq bo'l-maydilar;

**to'rtinchi:** mahsulotning asl bahosini bilmaganlar bilan to'g'ri muomalada bo'ladilar;

beshinchı: agar oldi-berdi tarozi bilan bog'liq bo'lsa, kam bermaslik va ko'p haq olmaslikka intiladilar.

Demak, hunar — moddiy va ma'naviy boylikdir.

Biz ham hayotimizda ana shu o'gitlarga amal qilmog'imiz darkor.

Akmal Po'lat

## HUNARIM

Hamma narsa hunarda,  
Hunar bilan unarda.  
Bog' yaratdik cho'llarda,  
Sharaf-shonim hunarim  
Hunar o'rgan, jon o'rtoq,  
Hunarga olam chanqoq.  
Hunar bilan dillar chog',  
Kuch-madorim hunarim.

Alisher Navoiy

## HIKOYAT

Xalq orasida bir ishyoqmas, tanbal kishi bor edi. Odamlar uning beg'ayratligidan hayron qolar edilar. U odamlardan musht, shapaloq yoki tepki yer, buning evaziga ulardan bir burda non yoki taom olib kun ko'rardi. Kishilar uni quvib yuborsalar ham, hech qayerga ketmay, o'zining yomon qiliqlarini tark etmasdi. U tortadigan jazolariga ma'lum bir narx

to'g'rilab qo'ygan edi. Qaysi bir kishi uni bir tepsa yoki ursa, o'sha kishidan buning haqini talab qilib olar, qo'liga tushgan narsasini darhol og'ziga solar edi.

Kunlardan bir kun kimdir uning qo'liga bir parcha non berib, shunday musht tushirdiki, natijada tanbal yer tishlab qoldi. Garchand shapaloqlar yeb, qornini to'ydirib yurgan bo'lsa-da, bir musht bilan endi qayta o'rnidan turmaydigan bo'ldi.



1. Hunarmandchilik odobini qanday tushunasiz?
2. Tanballik oqibatlari nimaga olib keladi?
3. «Agar hunarmand bo'lib qolsam» mavzusida hikoya tuzing.
4. «Hunarli kishi xor bo'lmas» maqolining mazmuni haqida so'zlang.



## MEN KIM BO'LMOQCHIMAN?

Dunyoda turli kasb-hunarlar ko'p. Bu ikki so'z mazmun va mohiyat jihatidan bir-birlarini to'ldirib turadi.

Kasb — ish-faoliyatning ma'lum tajriba, tay-yorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi.

Hunar — kishidan muayyan mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbayi hisoblangan mashg'ulot.



Demak, inson kasb-hunarni o'z qiziqishi, orzu-istagi, maqsadidan kelib chiqib tanlashi lozimdir. Hunarni har bir o'g'il-qiz bolalikdan egallab borishi lozim.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan kasb-hunarni e'zozlab kelgan, o'g'il-qizlarini ustalar qo'liga shogirdlikka berib, kasb-hunar o'rgatgan. Nati-jada, farzandlari hunarli bo'lib yetishgan.

Mustaqillik tufayli milliy xalq hunarmand-chiligidagi katta e'tibor berilmoqda. Hunarmand-larimizning ishlari dunyo ko'rgazmalarini bezamoqda.

## NASIHAT

Rivoyat qilishlaricha, bir donishmand farzandlariga shunday nasihat qilibdi: «Aziz o'g'-

Ionlarim, kasb-hunar o'rganinglar, zero, mol-u dunyoga ishonch yo'q va oltin-kumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o'g'irlab ketishi yoki egasi yeb-ichib tamomlashi mumkin. Ammo tanlagan kasbingiz, hunaringiz qaynar buloq, bitmas-tuganmas davlatdir. Agar hunarmand boyligidan mahrum bo'lsa, hunarining o'zi davlatdir. Shuning uchun o'zingiz yoqtirgan kasb-hunarni o'rganishingiz lozim. U sizni baxt-saodatga boshlaydi.

Kasb-hunar o'rganish uchun aql, qiziqish, mehnat, sabr-toqat, zehn bo'lsa, inson o'z kasbi va hunarining ustasi bo'la oladi.

## **KASB-HUNAR HAQIDA**

Oltin topmagine, o'rgangin hunar,  
Hunarning oldida xasdир oltin-zar.

(A. Jomiy)

Hunarli kishilar gapirmaydilar,  
Qarab tur hunarning o'zi gapirar.

(A. Donish)

Hunarli kishi xor bo'lmas,  
Do'st-dushmanga zor bo'lmas.

Hunar — zar, hunarli — zargar.

Hunar — hunardan unar.

(O'zbek xalq maqollari)

## ERKIN, TO'LQIN KASB TANLAR

Erkin, To'lqin kasb tanlar,  
Kasblar ma'nosin anglar.  
To'lqinjon der: kasb maza,  
Kasb bilan bilim soz-a?  
Ilm, bilim — hunar, demak,  
Hunardan unar, demak,  
Baxt-iqboling kular, demak,  
Hamma ishing bo'lar demak.  
Ana kasblar ma'nosi,  
Kasbdir mehnat a'losi.  
Erkin der: Kasb necha xil?  
To'lqin deydi: Ancha, bil!  
— O'zim aytsam, bir talay,  
Bilganim ayta qolay.  
Birinchisi aql, mehnat,  
Aql, mehnat — asl hikmat,  
Odamga izzat-hurmat.  
Fikr-zehningni ishlat,  
Ottob, oy, yulduz yashnat!  
Ikkinchisi, jismoniy,  
Qo'l-oyog'ing javloni.  
Bor vujuding ishlatish,  
O'tkir etib peshlatish.  
Yana, kasblar bosh mag'zi:  
Bosh-u quloq, ko'z, og'zi ...  
Xalq maqoli bor aziz,  
Ma'nosi olam laziz,

Odamga qirq hunar oz,  
Yer-osmonda qil parvoz.  
Timmasdan o'qi, o'rgan,  
Dunyoda sen bilmagan,  
Ilm-u hunar qolmasin,  
Aqling kundek porlasin...

### Buni esingizda saqlang!



Mehnat — inson hayotini farovon qiluvchi beba ho davlat; mehnatni sevib bajarish, unga chin qalbdan yondoshish, aql va zakovat bilan mehnat qilish, o'z mehnatini qadrlash, o'zgalar mehnatiga hurmat bilan qarash lozim.

### Insonni obro'siz va xor qiladigan illatlar

- yalqovlik
- tamagirlik
- tekinxo'rlik
- boqimandalik
- qo'l uchida mehnat qilish
- ishyoqmaslik, erinchoqlik



1. Qanday kasb va hunar turlarini bilasiz?
2. She'r matnidagi «Odamga qirq hunar oz» hikmatini qanday tushunasiz?
3. Hunar haqida maqollar va ertaklarni aytib bering.
4. «Odobnama» daftaringizga kasb va hunar egallashdagi quyidagi sifatlarni yozing: la-yoqat, chidam, zehn, iroda, tartib, faxlanish.



# **ORASTALIK VA EHTIYOTKORLIK — INSON KO'RKI**

## **ORASTALIK — YAXSHI ODAT**

Orastalik — ozodalik, sarishtalik, tartiblilik demakdir. Masalan, hamma yoqni sarishta qilmoq, orasta kiyinmoq, soch, tirnoqlarga e'tibor bermoq, maktab qurollarini yaxshi saqlamoq va hokazolar.

Ozoda va chiroyli kiyinish ham orastalikdandir. O'ziga munosib kiyim kiyish esa husnga husn qo'shadi. O'z yoshiga, mavsumga va joyiga qarab kiyinish insonning didfarosatidan, qanday odam ekanligidan dalolat beradi.

O'g'il-qizlarning milliy xususiyatlarni e'tiborga olib, o'zlariga yarashgan, ozoda liboslar kiyib yurishlari ular madaniyatining belgisi hisoblanadi.

O'quvchi mактабга jориy qilingan kiyimda bormog'i lozim. U o'zini va o'quv qurollarini tartibli saqlashi kerak. Kishi o'zini nazorat qilishi ham orastalikdir. Xalqimiz: «Toza joy farishtali

bo'ladi», deydi. Bunday joydan qut-baraka arimaydi. Kishi orastalikka riosa qilmasa, quyidagi ertakdagi holatga tushib qolishi mumkin.

Zamira Ibrohimova

## **QUSHCHA NEGA MAYNA BO'LDI?**

(ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa bor-u, ammo qushlarning orasida sayraydigani yo'q ekan. U paytlarda egnidagi qora baxmal ko'ylagini hech yechmaydigan, ko'zlarining atrofi sap-sariq, tumshuqchasi oltin rang bir qush bo'lgan ekan. Uning dovrug'i olamga ketgan ekan. Negaki uning yoqimli, mayin ovoziga hamma maftun ekan. Qushning sayrab aytgan qo'shiqlarini atrofdagi hamma jonivorlar miriqib tinglar va olamda faqat yaxshi, go'zal narsalarning bo'lishini orzu qilisharkan. Kuy tugagach, qushlar bir-birlariga qarab:

— Qanday mayin, qanday yoqimli va sehrli kuy-a? — deb qushni maqtashar ekan.


Qushlar uni yaxshi ko'rishib, unga ovoziga mos Mayin qush deb ism qo'yishibdi. Kunlardan bir kun Zag'izg'on, Chittak, Qaldirg'och va yana bir qancha qushlar maslahatlashib, uning uyiga mehmonga borishmoqchi bo'lishibdi. Tushlik uchun biri ninachi, ikkinchisi —

chigirtka, uchinchisi — kapalak, boshqasi semiz qurtni tumshuqlarida osiltirib, yo'lga ravona bo'lishibdi. Mayin qushning uyiga yetib kelishib, eshigini uzoq taqillatishibdi. Nihoyat, sevimli qushchalari eshigini ochibdi. Uning ko'zlari uyqudan qizarib ketgan ekan. Mehmonlarni ko'rib, biroz xijolat bo'libdi. Ularni ichkariga taklif qilibdi. Uychaga kirgan qushlar hayron bo'lib qolishibdi. Chunki, xona nihoyatda iflos ekan. Qush anchadan beri o'z husniga, ovoziga mahliyo bo'lib, uyini yig'ishtirmagan, hatto axlatlarni ham chiqarib tashlamagan ekan. Qushning bunday yashashi mehmonlarga yomon ta'sir qilibgi. Chunki, ular ozodalikka o'rganishgan, uylarini har doim supurib-sidirib qo'yishar ekan-da.

— Voy-bo'y, o'rtoqjon, uyingizni yig'ishtirib olsangiz bo'lmaydimi? — debdi aftini bujmaytrib Zag'izg'on.

— Idishlaringiz muncha yuviqsiz, yuvib bera qolaylik. Kirligi bilinmasin, hech kim mendan kulmasin, deb qora baxmaldan ko'ylak tiktirib olgan ekansiz-da? — deb uyaltiribdi Qaldirg'och.





Qisqasi, mehmon qushlar uni mazah qilishibdi, ustidan rosa kulishibdi. Qushcha qattiq xijolat bo'libdi. Shunda kichkinagina Chittak o'rta ga chiqib:

— Biz sizning ovozingizga maftun bo'lib, erkalab, «Mayin qush», deb atardik. Siz ham-maga mayna bo'ladi-gan qush ekansiz-ku,—

debdi. Shunda hamma qushlar: «Mayna, Mayna» deb chug'urlashib ketishibdi. Zag'izg'on:

— Yuringlar, ketdik. Maynaning uyida nima qilamiz,— debdi-yu, pir etib uchib ketibdi. Boshqa qushlar ham uning orqasidan ergashibdilar.

Mayna ularning orqasidan alam bilan shunday sayrabdiki, avvalgi ovozidagi mayinlik, yoqimlilik yo'qolib, qushlarni mensimaslik, masxaralash, turli ovozlarga taqlid qilishga o'xshab soxta ovoz jaranglabdi. Biroq uchib ketayotgan do'stlari unga qayrilib ham qarashmabdi. Qushchaning shuncha sayragani ularga ta'sir qilmabdi. Chunki qushlar Maynani endi yoqimli ovozi uchun emas, balki tartibsiz yashagani uchun qadrlamay qo'yishibdi.

Shunday qilib, bu qushning nomi asta-sekin unutilib, «Mayna» bo'lib qolibdi.



**Hissa:** Orastalik faqat o'ziga bino qo'yishda emas, uy tutish, kiyinish va bu-yumlarni toza, ozoda, saranjom-u sarishta, tartibli saqlashdadir.

## ORASTALIK MAZMUNI:

- tozalik
- yarashimli oddiy kiyim
- sochlarni tartibga keltirish
- mehnatdagi go'zallik
- uyni sarishta tutish
- o'quv qurollarini tartibli va ozoda saqlash.



1. Orastalik haqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
2. Ertakdan o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
3. «Toza joy farishtali bo'ladi», degan xalq iborasini qanday tushunasiz?
4. O'z oilangizda orastalikka qanday amal qilinishi haqida so'zlab bering.
5. Milliy xususiyatlarni yo'qotmagan holda orasta liboslar kiyib yurishni odat qiling.



## **EHTIYOTKORLIK — YAXSHI FAZILAT**

Ehtiyotkorlik nima?

Ehtiyotkor — har qanday ishni ham oldindan zarur choralarini ko'rib, hamma narsani hozirlab, shoshmasdan, oqibatini o'ylab boshlaydigan tadbirli kishidir. Ehtiyotkor odam hamma narsani tejab-tergab, asrab-avaylab sarf qiladi. U vaqtini ham, mablag'ini ham doimo rejasи bilan, me'yorida sarf qiladi, isrofgar-chilikka yo'l qo'ymaydi. Ayniqsa, «yetti o'Ichab bir kes» maqoliga amal qilish lozim. Shuning uchun ham ehtiyotkor kishilarining ishlari har doim odamlarga manzur bo'ladi.

To'lqin Eshbek

## **USTA**

(ertak)

Qadim zamonda Teshavoy degan odam o'tgan ekan. Uning daraxtlari juda ko'p ekan. Teshavoy kun bo'yi turli-tuman yog'ochlardan chiroyli buyumlar yasar, hatto imoratlar qurar ekan-u, biroq daraxtlari sira kamaymas ekan. «Daraxtlar borgan sayin ko'payishining boisi usta Teshavoy bitta daraxt yiqitsa, o'rniغا ikkita ko'chat ekadi», deb o'ylasharkan odamlar, ammo boshqa muhimroq siri borligini hech kim bilmas ekan. Bu sirni usta o'g'illariga aytishni niyat qilib yurarkan. Bir kuni u o'g'illarini chaqirib, shunday debdi:

— Har biringiz o'rmonga borib, birorta buyum yasashga arzimaydigan yog'och topib kelinglar.

Birinchi bo'lib katta o'g'il o'rmonga yo'il olibdi. Qing'ir-qiyshiq yog'ochni tezgina topibdi. Yog'ochning g'o'la qismi bug'uning tumshug'iga, ikkita ulkan shoxchasi o'sha joni-vorning shoxlariga juda o'xsharkan. Bundan na imorat, na eshik va na xontaxta yasashda foydalanish mumkin, deb o'ylabdi u o'zicha.

— Mana,— debdi u o'sha yog'ochni sudrab kelib.


— Hech narsaga yaramaydiganini topdim. O'rmonda bunaqa shox-shabbalar qalashib yotibdi ...

Usta Teshavoy yog'ochni ko'rib, negadir quvonib ketibdi.

— Sen eng noyob buyum bo'ladigan yog'ochni keltiribsang-ku,— deb istehzoli kulibdi to'ng'ich o'g'liga.— Axir bundan zo'r omoch yasash mumkin.

Teshavoy qo'liga teshasini olib ishga kirisibdi. Tarvaqaylagan shoxlarni tartibga keltiribdi, ular chiroyli dasta bo'libdi. Bug'uning tumshug'iga o'xhash qismini yo'nib sillqlabdi-da, ichiga kuraksimon temir qoqibdi. O'g'illarining ko'z oldida juda alomat omoch paydo bo'libdi. Chol o'g'illariga tushuntiribdi:

— Yodlaringda bo'lsin, yog'ochdan bir-biriga ulab yasalgan omoch chidamsiz bo'ladi. Yer haydashga kirishilgandanoq ulangan joylari



ayrilib ketaveradi. Ona tabiat ehson qilgan manavi omoch esa bir umr yer haydasangiz ham sinmaydi! Har qanaqa zarang yerni shudgor qilishga ham qodir bu omoch!..

Navbat o'rtancha o'g'ilga yetibdi. U ham bo'limg'ur yog'och izlab o'rmon oralabdi. Har xil tarvaqaylab o'sgan daraxt-u shox-shabbalar orasidan buyum bo'lishga arzimaydigan eng bo'limg'urini izlay boshlabdi. Ko'p o'tmay, o'rmonning quruq joyidan bitta yog'ochni tanlabdi. Yo'g'onligi bilakdek keladigan bu yog'och shunaqa buralib-buralib o'sgan ekanki, undan biror narsa yasash mumkinligiga o'rtancha o'g'ilning ko'zi yetmabdi. O'sha yog'ochni uyiga sudrab ketibdi.

Uni ko'rib otasining chehrasi yorishibdi:

— Men ko'pdan beri axtarib, topolmay yurgan yog'ochni keltiribsan-ku,— deb o'rtancha o'g'lini maqtagan bo'libdi.— Sen ham akangga o'xshab dehqonchilikni xush ko'rasan, shekilli. Akang omochbop yog'och keltirgandi. Sen bo'lsang ho'kizning bo'yniga bo'yinturuq bo'ladigan yog'och topibsan!..

Chol tag'in ishga kirishibdi. Hash-pash deguncha juda mustahkam bo'yinturuq yasabdi-da:

— Bu narsani ham tabiiy shakllanib o'sgan daraxtdan yasagan ma'qulroq,— deb qo'shib qo'yibdi.

Buyum bo'lishga arzimaydigan yog'och topib kelish gali kenja o'g'ilga yetibdi. U ham akalari singari o'rmonga yo'l olibdi. Hadeganda qayta-vermabdi. Shu ketgancha uch kecha-kunduz daragi bo'lmabdi. Oxiri uyiga horib-charchab qaytibdi.

— Xo'sh, sen qanaqa yog'och keltirding?— deb savolga tutibdi otasi.

Kenja o'g'il vazmin bosh chayqab, javob beribdi:

— Butun o'rmonni kezdim. Turli-tuman yo'g'ochlar juda serob ekan. Biroq, ular orasidan buyum bo'lishga arzimaydiganini topa olmadim ...

— Barakalla,— debdi chol kenja o'g'lining yelkasiga qoqib,— sendan haqiqiy usta chiqishiga ishonsam bo'larkan. Chindan ham,

yog'ochlarning buyum bo'lmaydigani yo'q. Bu, yolg'iz ustaning mahoratiga bog'liq! Daraxtlarimiz yil sayin gurkirab o'sishining sirini ham anglagan bo'lsang kerak; ya'ni men hech vaqt biror buyum yasash uchun duch kelgan daraxtni kesmayman. Hatto, oddiy cho'pni ham huda-behuda yo'nib tashlamayman, isrof qilmayman! Avvalo, yasaydigan buyumimga yarasha yog'och axtaraman, eng ma'qulini tanlab, so'ng ishga kirishaman. Qarabsanki, yog'och ham zoye ketmaydi, yasagan buyumim ham sifatli bo'ladi.

Usta Teshavoy kenja o'g'liga yana bir qancha nasihatlar qilib, dastgohi va ustachilik anjomlarini unga qoldiribdi.

## TADBIRKORLIK HAQIDA MAQOLLAR

Yetti o'lchab bir kes.

Temir kessang, kalta kes, cho'zsa bo'lur,  
Yog'och kessang, uzun kes, yo'nsa bo'lur.

Hisobini bilmagan hamyonidan  
ayrilar.

Ish ustasidan qo'rkar.

Puxtaning ishi besh  
Shoshmaning ishi bo'sh.

Qo'ling bilan qilar ishni boshing bilan o'yla.

Har bir ishning chamasi bor  
Har daryoning kemasi bor.



1. Ertakdan o'zingizga qanday xulosa chiqar-dingiz?
2. Ehtiyyotkorlik, rejali ish qilish natijasi qan-day bo'lar ekan?
3. Shunday xislatlarni kimlarda payqadingiz?
4. Ehtiyyotkorlik va tadbirkorlik haqida hikoya yozing.



## VATAN TUYG'USI

### VATAN TUYG'USI VA MILLIY G'URUR BILAN YASHAGAN BOBOLAR

Vatan haqida gap ketganda «Vatan — bu sening kindik qoning to'kilgan tuproq», «Sening, ota-onang, avlod-ajdoding tug'ilib o'sgan joy», — deyiladi. Shu sababdan Vatan tuprog'ini, ona yurtimizdagи go'zal bog'larni, baland tog'larni, jo'shqin oqayotgan daryolarni, paxtazor va bug'doyzorlarni, qir-u adirlarni, qushlarni, qo'yingki jamiki boyliklarni, jon-zotlarni, shu yurtumizda yashayotgan insonlarni sevamiz. Mana shu tuyg'udan Vatan tuyg'usi shakllanadi.

Vatan tuyg'usi — ona-Vatanimizni qadrlash, undan faxrlanish, uni sevish, dushmanlardan himoyalash, kerak bo'lsa jonini fido qilish demakdir. Vatan tuyg'usi bilan yashagan bobolarimiz Vatan tupro'gini muqaddas bilganlar. Uni ko'z qorachig'idek asrab, tashqi dush-



manlar bilan kurashganlar. Bu haqda ko'plab asarlar yozib qoldirganlar. Vatanparvarlik tuyg'usi bizga bobolarimizdan meros bo'lib qolgan.

Yurtimiz juda ko'p vatanparvarlar, sarkarda va qahramonlarni voyaga yetkazgan. Amir Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud kabi vatanparvarlar jasorati bizga o'rnakdir. Ular mard va jasur insonlardir.

Bolalar, siz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy, al-Xorazmiy kabi buyuk bobolarimiz haqida eshitgansiz. Ular o'zlari tug'ilib o'sgan joy nomlarini taxallus qilib olganlar. Bu ulug' allomalarimizning o'z vatanlarini nechog'lik sevganlari, u bilan faxrlanganlaridan dalolatdir.

Ular o'zlarining boy meroslarida ona-Vatanga munosib farzand bo'lishga, Vatani va xalqi bilan faxrlanib yashashga chorlaganlar.

Biz ana shu ajdodlarning avlodi ekanligimizdan g'ururlansak, Vatan tuyg'usini va milliy g'ururni yuksak bilsak ularga munosib farzand bo'lamiz.

Abdulla Qodiriy, Cho'Ipon, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori, Elbek, Usmon Nosirlar Vatan ozodligi, erki yo'lida kurashib, qurban bo'ldilar. Ularning pok nomlari mustaqillik tufayli oqlandi. O'zbek xalqi bu vatandoshlarini hech qachon unutmaydi.

O'z hayatini Vatan, xalq, millat taraqqiyotiga bag'ishlagan ko'plab vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida Xotira maydoni, turli majmualar qayta qurildi va yangilari barpo etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ular «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Inson uchun Vatandagi hamma narsa: xalq, yer, o'tmish, kelajak qadrli bo'lishi kerak.

Abdulla Avloniy

## VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
Har kim sening qadring bilmas — aqli  
pastdur.

Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,  
Sening darding boshqa dardni tortib olur.

Yering, suving bizni boqib to'ydiradur,  
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.

Olma-anor, anjir, uzum — mevalaring,  
Ot-u ho'kiz, echki, takas, tevalaring\*.

Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,  
Har birlari noz-u ne'mat parchalari ...

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!  
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!

### **Maqollar:**

O'zga yurtda shoh bo'lguncha,  
O'z yurtingda gado bo'l.

Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr,  
U qalban shikasta, u qalban so'qir.

El qudrati — chin qudrat,  
Vatan tuprog'i — qimmat.

Yurt qo'risang, o'sarsan,  
Qo'rimasang, to'zarsan.

---

\* Teva — tuya.




1. Vatan nima?
2. Vatan tuyg'usi haqida nimalarni bilasiz?
3. Sizning Vatan ravnaqi uchun qo'shadigan hissangiz nimalardan iboratligi haqida so'zlab bering.
4. Vatanparvar ajdodlarimizning rasmlarini yig'ib, albom tayyorlang.



## XOTIRA MAYDONI

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1999-yilda O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida va barcha viloyatlarda Vatan ozodligi uchun kurashgan va shu yo'lda qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish hamda ularning jasoratlarini hamisha eslash uchun «Xotira maydoni» bunyod etildi.



«Xotira maydoni»da II Jahon urushi qurbanlari, bedarak yo‘qolganlar, urushdan qaytmaganlar-ning jasorati haqida ma’-lumotnoma yaratildi. Urush qurbanlari bilan birga Vatan mustaqilligi uchun halok bo‘lganlar ham hisobga olindi. Prezidentimiz farmoni bilan 9-mayni «Xotira va Qadrlash kuni» deb e’lon qilindi.

Shundan beri har yili 9-may mustaqil Vatani-  
mizda «Xotira va Qadrlash kuni» sifatida nishon-  
lanmoqda.

Bu bayram O’zbekiston xalqi uchun juda qadrlidir. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan mard va jasur vatandoshlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

O’zbekiston deya atalgan saxovatli zami-  
nimizda doimo tinchlik, osoyishtalik, farovonlik  
hukm sursin.



1. Nima sababdan respublikamizda «Xotira maydonlari» bunyod etildi?
2. «Xotira maydoni» bunyod etilishining ta-shabbuskorı kim?
3. 9-may qanday kun?



«Mustaqillik maydoni»dagi  
«Ezgulik monumenti»



## VATANIMIZDAGI QADIMIY OBIDALAR

Vatanimizda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan juda ko'p tarixiy obida va yodgorliklar bor. Ular turli davrlarda yashab o'tgan ulug' kishilar, podsholar va buyuk allomalar tomonidan barpo etilgan.

Bu obidalar o'tmish tariximizdan darak berib turibdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylash lozimligi qayd etilgan. Bunday yodgorliklarni qasddan yo'q qilish jinoyat hisoblanadi. Ota-bobolarimizdan qolgan bu tarixiy obidalarni asrash, ularni muhofaza qilish, uni kelajak avlodga mukammal yetkazib berish burchimizdir.


Tarixiy, madaniy yodgorliklar davlatimiz tomonidan himoyalananadi. Shu maqsadda «O'zbekiston Respublikasi tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish jamiyat» tuzilgan. Respublikamizdagi ayrim tarixiy va madaniy yodgorliklar «YUNESKO» Xalqaro tashkiloti tomonidan ham nazorat qilinadi.

«YUNESKO» — Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti.




1. Vatanimizdagi yana qanday qadimiy obidalarni bilasiz?
2. Ularning rasmlarini yig'ib, albom tayyorlang.







**Samarqanddagi Sherdor madrasasi**




**Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi**



**Xivadagi Islom Hoji  
minorasi**



**Buxorodagi Somoniylar  
maqbarasi**



**Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi**


## **TABIAT — GO'ZALLIK RAMZI**

### **TABIATNI ASRASH — BURCHIMIZ**

Tabiat Alloh tomonidan yaratilgan bir mo'jizadir. Uning beqiyos go'zalligini, butun borlig'ini his etish insonga zavq-shavq bag'ishlaydi.

Shu tuproq, shu borliqni e'zozlashimiz, unga mehr-muhabbat ko'rsatishimiz kerak. Insonlar hovli, ko'cha va bog'larni supurib-sidirib ozoda tutsalar, havoni toza saqlasalar, hayotbaxsh ne'mat—suvni isrof qilmasalar, o'simlig-u hayvonlarga g'amxo'r bo'llib, ularni mehr bilan parvarish qilsalar ona tabiat ham ularga muruvvat ko'rsatadi.

Tabiatga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrash burchimizdir. Yer usti va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar millatimiz boyligi. Shuning uchun ulardan oqilona foydalanish zarurdir. Ular davlatimiz tomonidan himoya qilinishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida



belgilab qo'yilgan. Biz ana shu burchimizni unutmashligimiz lozim.

O'zbekiston gullar diyori. Tabiatning go'zalligi gullar bilan. Gulga qarab ba'zan hayron qolasan: undagi go'zallik, nafislik, ranglar jilosи insonlarni doim lol qoldirib kelgan.

Xalqimiz gullarni ardoqlab, do'st-yaqinlarining eng yaxshi kunlarida taqdim etadilar. Gul mehr-muruvvat ramzidir.


Bahor darakchilari binafsha, boychechak, chuchmomalar tabiatni o'z chiroylari bilan bezaydi. Ular insonga zavq bag'ishlaydi.

Muhammadjon Qo'shoqov

## GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,  
Guli mitti tugmacha.  
Ko'rinishi siyohrang,  
Olib uni taqmasang,  
Sendan xafa bo'ladi.

Taq sang yashnab turadi.  
Ko'rganmisan bahorda,  
Terganmisan nahorda?  
Suv bo'yida ochilar,  
Hidi har yon sochilar.



## BOYCHECHAK

U ochildi tong chog'ida  
Erka chechak, oy chechak.  
Boychechak deb atadilar,  
Gullar ichra kelinchak.

Qarab tursam, u gunafsha  
Loladan ham suluvroq.  
Bahor keldi, deb chorlovchi  
Go'yoki jajji qo'ng'iroq.

## CHUCHMOMA

Avji bahor faslida  
Yashnaganda o'ngu so'l,  
Yashil adir pastida  
Ko'rib qoldim novcha gul.

Gunafshadek siyohrang,  
Bargi qiyoq, fusunkor.  
Qo'lga olib hidlasang,  
Ona tuproq isi bor.

U ham ko'klam elchisi,  
Chakkangga taq, chakkangga.  
Kumush tongda ochildi  
Chiroy qo'shib o'lkamga.



1. Tabiat go'zalligi nimada?
2. Tabiatni asrash deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiatni asrashda sizning burchingiz ni-malardan iborat?
4. Yer osti va yer usti boyliklarimizni aytib bering va daftaringizga yozib oling.



## BOBUR BOBOMIZ YARATGAN BOG'LAR

Zahiriddin Muhammad Bobur shoir, adolatli podshoh hamda tabiat shaydosi bo'lgan. Bobur Hindistonda podshohlik qilgan davrida uning tabiatini asrash, ardoqlash maqsadida bog'lar yaratdi.

Bobur o'zi barpo etgan bog'lar bilan faxrlanar, bu go'zallikdan zavqlanar edi. Boburning tabiatga muhabbatiga uning farzandlari, nabitalariga meros bo'lib qoldi. Boburiylar yaratgan bog'lar orasida, ayniqsa, «Pinjor» bog'i juda go'zal bo'lib, uni sayr qilgan har bir odam tabiatning mislsiz go'zalligidan bahra olgan.

Hikoya qilishlaricha, ushbu bog'ning oq rangli darvozasiga qizil gullar chirmashib ketgan ekan. Ariqlarning bo'yida palma daraxtlari o'sar, tongda esgan mayin shabada ularning nozik shoxlarini tebratib turardi. Bog'ning olti tarafidan olti ariqda zilol suv oqib kelar va bog'ni yashnatar edi. Shoir turli o'lkalardan turfa xil gullar keltirib, betakror bir chaman yaratgan.



Xushovoz qushlarni jamlab, ularning ovozidan o'zi ham zavqlanar edi.

Bunday bog'lar yaratish tabiatni sevgan, nozikta'b insonlargagina xosdir. Shuning uchun ham dono xalqimizda «Yaxshidan bog' qolar», degan naql bor.

Demak, bu an'anani davom ettirishga bunguni avlod — siz ham burchlisiz!



1. Siz bog'ning go'zalligini qanday tushunasiz?
2. Uni asrashni bilasizmi?
3. Zahiriddin Muhammad Bobur nima uchun tabiatni sevgan?
4. Boburiylar yaratgan bog'lar haqida qoshimcha ma'lumotlarni bilib oling.



O'. Usmonov

## CHUMCHUQ BOLA

Boboxon chumchuq bolani rosa qiyndadi: suvga solib suzdirdi, ikki qo'li bilan qanotlarini yoyib, hilpillatdi... Keyin oyog'iga ip bog'lab ko'chaga olib chiqdi.

Ko'chada Tal'atga duch keldi. Tal'at Boboxonni ko'rди-yu, unga yalinib o'tirmay, shoshapisha yonini kovlashtirdi: kissasida yarimta o'chirg'ich bilan kecha ochgan qizil qalami bor ekan.

— Boboxon, chumchuqni qayerdan olding?

— Bug'doyzordan, chigirtka tutayotganimda do'ppi bilan urib yiqitdim.

- Alishmaysanmi?
- Alishaman, nimang bor? — dedi hovliqib.
- Mana, bo'yoq qalam, shunga berasanmi?
- Fi-i! Tirik chumchuqni bitta qalamgami?
- Boshqa narsang yo'qmi?
- Agar xo'p desang, mana bu o'chirg'i-chimni ham beraman.

Boboxon bilagiga o'rab olgan pishiq, ingichka ipini bo'shatib, Tal'atdan o'chirg'ich bilan qalamni oldi-da, chumchuq bolani berdi. Keyin qiziqsinib:

- Buni alishvolib nima qilasan? — dedi.
- Hozir bilasan nima qilishimni.

Tal'at chumchuq bolaning oyog'ini avaylab ipini yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchanı bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo'yib yubordi. «Bor, uchaver!» So'ng Boboxonga qaradi...

Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolaga, goh istehzo bilan kulimsirab turgan Tal'atga — o'rtog'iga jovdirab, nima qilishini bilmay hang-mang bo'lib qolgan edi.



1. Siz nima deb o'ylaysiz, Tal'at to'g'ri qildimi?
2. Tal'atning ornida bo'lsangiz siz nima qilardingiz?
3. Jonivorlarga qanday g'amxo'rlik qilsak, tabiatni asragan bo'lamiz? Shu haqda kichik insho yozing.



## RIVOYATLARDAGI HIKMATLAR

### XALQ YARATGAN RIVOYATLAR

Rivoyatlar — o'tmish voqealarini ixcham, lo'nda, ta'sirchan qilib ifoda qiluvchi og'zaki hikoya va afsonalardir. Rivoyatlar, odatda, ibratli, hikmatomuz mazmunga ega bo'ladi.

Rivoyatlarda biror mashhur shaxs, imorat, joylar bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xalqimiz tomonidan bunday rivoyatlar ko'plab yaratilgan.

Tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlarda ularga xos donolik, odob, saxovat, adolat kabi fazilatlar o'z aksini topadi. Kishilar bunday rivoyatlarni o'qib, eshitib, ulardan o'rnak oladilar. O'zlari ham shunday fazilatlarga ega bo'lishga intiladilar. Rivoyatlar kishini ko'p narsalar haqida o'ylab ko'rishga, yaxshilikka intilishga undaydi.



## NAVOIYNING DO'STI

Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi, do'sti bor ekan. Shoir uni juda yaxshi ko'rар, shogirdi bo'lса ham, uni qadrdon, sirdosh do'st deb bilar edi.

Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir nojo'ya ishi tufayli Sulton Husaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. Shu aybi uchun podshoh Pahlavon Muhammadga quydagicha jazo tayinlabdi:

— Pahlavonning soqol-mo'ylovini qirib tashlanglar, so'ng kaltadum libos kiydirib, ko'cha ko'yda sazoyi qilinglar,— deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo'lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavonning izzat-nafsi kam-sitilib, u bunga chiday olmasligini anglab, bu

sharmandalikning oldini olish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib borib:

— Sultonim, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, bir xil soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyim kiyib, men boshqa kiysam, o'rtadagi ont buzilib, gapimiz tuzsiz, o'zimiz subutsiz bo'lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo'ylovimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga bergandek kalta libos kiygizib, do'stim bilan birga ko'cha aylantirsinlar, — debdi.

Navoiyning shogirdi hamda do'stiga bo'lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko'rgan Husayn Boyqaro g'azab otidan tushib, jazoni bekor qilganini o'zi ham bilmay qolibdi:

— Pahlavonning gunohidan o'tdim, jazo qoldirilsin, deb buyuribdi.

## SUKUTNING XOSIYATI

Rivoyat qilishlaricha, o'z davrining mashhur hakimi, hamma davrlarning dono tabibi bo'lmish Luqmoni Hakim kunlardan bir kuni hazrati Dovudning oldiga boribdi. Dovud odatdagideksovut, zirhli kiyimlar tayyorlash bilan band, ya'ni temir-tersaklar orasida ishlab o'tirar ekan.

Hakim umri bino bo'lgandan beri bunday manzaraga duch kelmagan ekan. Shu bois-

dan bunday zirhli kiyimlar qanday kiyimlar ekanligini, uni kimlar kiyishini so'ramoqchi bo'libdi. Ammo ustozi: «Avval o'yla, keyin so'yla», «Sabr qil — sabrning tagi oltin», — deb o'rgatgan ekan. U sukut saqlab kuzatibdi. Kiyimning tayyor bo'lishini kutib turibdi. Hazrati Dovud kiyimni tayyorlab, egniga ilibdi-da, shodlanib Hakimga shunday debdi:

— Mana ko'rdingizmi, men sovuq temirdan qanday issiq kiyim tayyorladim. Buni kiygach, bemalol jangga kirib, bosqinchi dushmanning dodini berish mumkin.

Bu gapni eshitgan Hakim: «Sukut — aql belgisi. Ustozimning nasihatiga amal qilib sukut saqladim-da, qo'pol xatodan saqlandim», — debdi ichida.

Bu rivoyatlarning har ikkisida ham tarixiy shaxslar haqida gap boradi. Zero, rivoyatlar zamirida haqiqat yashiringan. Ularning birida Alisher Navoiyning do'stiga sadoqati haqida bilib olgan bo'lsangiz, ikkinchisida o'ylab ish tutish, sabr qilish kabi ajoyib xislatlarni o'r-gandingiz.



1. Rivoyat nima?
2. Rivoyatlarda nimalar aks ettiriladi?
3. «Navoiyning do'sti» rivoyatidan qanday hikmat topdingiz?
4. «Sukutning xosiyati» rivoyati kishini qanday bo'lishga undaydi?
5. O'z xulq-atvoringiz haqida o'ylab ko'ring.



## O'LKAMIZ O'TMISHI

O'zbekiston juda katta maydonni egallagan mamlakatdir. Turli joylarga borsangiz, o'nlab yangi nomlarni—atamalarni eshitasiz. Bu atamalarning o'ziga xos tarixi bor. Ular haqida juda ko'plab rivoyatlar yuradi. Bu rivoyatlar o'sha joyning nega shunday atalganligi haqida ma'lumot beradi.


## CHO'LI MALIK

O'zbekistonda Cho'li Malik degan joy bor. Nega shunday ataladi, bilasizmi? Bilmasangiz, eshiting.

Qadim-qadimlarda bir o'lkanning xoni vaqt-vaqt bilan mamlakatimda nima gap ekan, deb o'ziga qarashli qishloqlarni kezar ekan. U

joydan by joyga o'tib, yomonlarning jazosini berarkan, yaxshilarni mukofotlarkan. Kunlardan bir kuni anchagina yerlarni aylanib, juda charchabdi. Bir joyga kelganda: shu joyga chodir tikinglar, dam olamiz, debdi. Chodirlar tikilibdi.


Xonning bir shotiri, ya'ni jilovdori bor ekan. Uning ismi Malik ekan.



U xon uxlaganida yonida o'tirar, puyoda yurganida otining jilovini boshqarar ekan. Xon yangi tikilgan chodirda uyquga ketibdi. Malik bo'lsa uning yonida chivin qo'rib o'tiribdi. Tasodifan bir chivin asal to'la kosa chetida aylanib-aylanib, bir teshikka kirib ketibdi. Malikvoy qarab tursa, haligi chivin yana teshikdan chiqibi-di-yu, tag'in asal to'la ko-saning chetidan aylanib-aylanib xonning burniga qo'nmoqchi bo'libdi. Malikvoy qiziqib, «Nima bo'larkin?» deb diqqat bilan qarab turaveribdi. Birozdan keyin boyagi holat yana takrorlanibdi. Malikvoy bu voqeani ko'rib hayron bo'libdi.

Chivinni tutushga ulgurolmay, ancha vaqt xunob bo'libdi. Shu payt xon uyg'onib qolibdi va tush ko'rganini aytibdi.

— Tushimda,— debdi xon,— bir g'orga kribman. G'orning ichida tilla to'la xum bor emish. Tillolarni olay desam atrofimni ilon-u chayonlar o'rab olganmish, ular tilloni oldirgani qo'ymasmish. Shunday qilib, tillolarni olmay g'ordan chiqdim-da, cho'lda yura-yura shaharga yetib keldim.



Malikvoy chivin voqeasini eslab: «Tushga buning aloqasi bormikan», deb o'ylanib qolibdi. «Bunda bir sir bor», debdi-yu, so'zlashga jur'at etmabdi. Ertasiga safarga chiqish oldidan, o'zini kasalga solibdi. Xon: — Bo'lmasa, sen shu chodirda qol-da, tuzalgach, bizning ortimizdan yetib olarsan,— debdi.

Hamma jo'nab ketibdi. Malikvoy darrov qo'-liga ketmon olib, chivin kirib chiqqan yerdagi teshikni kavlay boshlabdi. Qarasa teshikning tagida ikki xum tilla bor ekan. U tillolarni olibdi va o'zining aqliga qoyil qolibdi. Hamma yoqqa jar soldirib, eng yaxshi ustalarni chorlab, shu yerda shahar qurdiribdi. Suv chiqarib, cho'lni bo'ston qilibdi. Shu-shu bu yerni «Cho'li Malik» deb ataydigan bo'lishibdi.

## O'SH HAQIDA AFSONA

Zangi ota ot, sigirlarning piri, g'amxo'r-mehriboni ekan. Zangi otaning mol-hollari ko'payib, hech qayoqqa sig'may qolibdi. Bunday paytlarda uning sigirlarini qo'ng'ir buqasi boshqarar ekan. Vaqt-soati kelib, qo'ng'ir buqa qarib, butun podani boshqarib borishga kuch quvvati yetmay qolibdi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolibdi. Poda esa o'z holicha o'tlab, olis-olislarga tarqab ketibdi. Bir payt poda jila-jila Farg'onadan o'tib, Andijondan ham oshib ketibdi. Xuddi shu paytda Toshkentning shundoqqina biqinida istiqomat qilayotgan Zangi ota

baland ovoz bilan: «Xo'sh, xo'sh», deb hayqiribdi. Zangi otaning ovozini eshitgach, o'tlab yurgan sigirlar: «Qaytmasak bo'lmaydi, pirimizning qarg'ishlariga qolamiz», deb orqa-lariga qaytibdilar.

Zangi otaning hayqirig'idan «O'sh» degan nom qolgan ekan va u o'sha joyning nomiga aylangan ekan.



1. O'zingiz yashaydigan joy nomlari tarixi bilan qiziqqanmisiz? Agar qiziqlagan bo'l-sangiz, ota-onangizdan bu haqda so'rab ko'ring.
2. Siz ham shunga o'xshash rivoyatlar eshitgan bo'lsangiz, aytib bering.



## **HADISI SHARIF — ODOB-AXLOQ MANBAYI**

### **MUHAMMAD PAYG'AMBAR HADISLARI**

Hadisi sharif islom dinida Qur'oni karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manbadir.

Hadislarda Payg'ambarimiz Muhammad alay-hissalomning hayotlari va odatlari, u zotning diniy-axloqiy ko'rsatmalari o'z aksini topgan. Shuning uchun ham hadislар insonni komillikka eltuvchi, uni ezgu, savob ishlarga da'vat etuvchi boy ma'naviy-ma'rifiy xazina hisoblanadi.

Hadislarda birodarlik, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik,adolat, insof kabi insoniy fazi-latlar targ'ib qilinadi. Shu bilan bir qatorda razolat, kibru havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fisqu fasod, zulm kabi illatlar qoralanadi. Shuning uchun Muhammad payg'ambar hayoti va hadislari insonlarga ibrat namunasidir.

## HADISLARDAN NAMUNALAR

Avvalo, onangga, yana onangga va yana onangga, so'ngra otangga yaxshilik qil.

Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi.

Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda tunaydi.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.

Odamlar bilan xushmuomala bo'linglar. Odamlarga qattiqqo'llik qilib behayo so'zlamanglar.

Tangri saxiydir, saxiylarni do'st tutadi. Axloqi oddiy kishilarni yoqtirib, axloqsizlarni yoqtirmaydi.

Baxillikdan yomon illat yo'q.


Muloyimlik hikmatning boshidir.

Bir-biringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o'rtalaringizda mehr-u muhabbat uyg'onadi.



1. Hadis deganda nimani tushunasiz?
2. Hadisda qanday insoniy fazilatlar targ'ib qilinadi?
3. Hadislар qanday yomon ishlardan qaytaradi?
4. Hadislardan yod oling.





## **ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY**

Ismoil al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan.

U o'n yoshlar chamasida o'zida hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisini yodlab borar edi. O'n olti yoshga yetganda, o'sha davrning eng mashhur muhaddis olimlaridan Abdulloh ibn Muborak va Valiylarning hadis to'plamlarini yod olgan.

Imom Buxoriy «Qazoyo as-sahobat vat-tobe'in» («Sahobalar va tobeinlar masalalari») va «At-Tarix al kibor» («Katta tarix») kitoblarini o'n sakkiz yoshida Madinada—Muhammad alayhissalomning maqbaralari yonida yashagan vaqtida yozgan edi.

Imom Buxoriyning xotirlashicha, u Bag'dodda istiqomat qilgan yillari, asosan oydin kechalarda ijod qilar, qorong'i tunlarda esa shamchiroq nurida hadislarni jamlab kitob yozar ekan. Hadislар biroz yodidan ko'tarilganda shamni o'chirib, bexosdan yangi hadis yodiga kelib qolsa, darhol shamni yana qaytadan yoqib, ishda davom etar ekan. Ba'zan uning hujrasidagi sham 20 marta-gacha yonib-o'char ekan.

Manbalarda al-Buxoriyning 600 000 ga yaqin hadisni yod bilgani qayd etilgan. U ana shu hadislarni guruahlarga bo'lib, ularning eng ishonchlilarini o'zining «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») kitobiga kiritgan.

Kunlarning birida amir Xolid ibn Ahmad Imom Buxoriya odam yubora turib: «Borib ayt, yozgan «Al-Jome' as-sahih» va «At-tarix» kitoblarini olib kelib, menga o'qib bersin», deb buyuradi. Imom Buxoriy elchiga qarab: «Sen unga borib ayt, men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigiga olib bormayman. Kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Bu so'zim ma'quil kelmasa, amirning farmoni o'z qo'lida», — deb javob beribdi. Buni eshitgan amir uni shahardan chiqib ketishiga farmon beribdi.

Imom Buxoriy shundan so'ng shaharni tark etib, Samarqandning Xartang qishlog'idagi qarindoshlarining uyiga ko'chib ketadi. O'sha yerda betoblanib, 870-yil 1-sentabrda, 60 yoshida vafot etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin ko‘p ulug‘ bobolarimiz qatori Imom al Buxoriyning nomlari ham qayta tiklandi. Uning to‘plagan hadislari nashr etildi. Tavalludining 1225 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi. Samarqandning Xartang qishlog‘idagi maqbarsi juda ko‘rkam bir tarzda ta’mirlanib, ziyyaratgohga aylantirildi. Butun dunyo musulmonlari u to‘plagan hadislarni o‘rganib, ularga amal qilib kelmoqdalar.

## **IMOM AL-BUXORIY TO‘PLAGAN HADISLARDAN NAMUNALAR**

Jahli chiqqan vaqtida ham o‘zini tiya oladigan kishi kuchlidir.


Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi axloqdir.

Yomon odamlarga yaxshi muomala qilmoq baloning oldini olmoqdir.

Haqiqatni, to‘g‘ri so‘zni tan olmaslik va boshqa kishilarni o‘zidan past hisoblashlik kibrdir.

Kishi o‘z ota-onasini so‘kishi katta gunohdir.

Otaga qilinadigan yaxshiliklarning eng yaxshisi — otangga yaqin bo‘lgan kishidan aloqani uzmaslik.



1. Imom al-Buxoriy kim?
2. Imom al-Buxoriyning qanday kitoblari bor?
3. Hadislarni yod oling.



## ABU ISO AT-TERMIZIY

Abu Iso at-Termiziy 824-yilda Termiz shahrida tavallud topgan. Ularning oilasi faqirona hayot kechirgan. Abu Isoning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tgan va dastlabki ma'lumotni ham shu shaharda olgan. At-Termiziy yoshligidan o'ta zakovatli, zehnli bo'lib, turli ilmlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallagan. Bolalik yillaridan boshlab ko'pgina ustozlardan ta'lim olgan. U uzoq yillar Iraq, Isfaxon, Xuroson, Makka va Madinada yashab ijod etgan. 892-yili Termizdan uzoq bo'limgan Bug' qishlog'ida vafot etgan.

At-Termiziy yaratgan asarlar uning yetuk olim bo'lganligiga yorqin dalildir. Manbalarda keltirilishicha, at-Termiziy ilm-fanning qator sohalariga oid o'ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Afsuski, ulardan ko'plari bizgacha yetib kelmagan. At-Termiziy qalamiga man-



sub asarlarning eng mashhuri, shubhasiz, «Al Jome'» («Jamlovchi») hadislari to'plami. Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati, uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan ushbu asar «Sunan at-Termizi» («At-Termizi hadislari») nomi bilan atalib, Qur'oni karimdan so'ng butun islom dunyosida tan olingan olti hadislari to'plamining biridir. At-Termizi o'zi ham ushbu asarning ahamiyati haqida gapirib: «Uni yozib tugatib, Hijoz, Iroq va Xuroson olimlariga ko'rsatganimda, ular uni bir ovozdan ma'qul topdilar. Rostdan har kimning xonadonida bu kitob bo'lsa, go'yoki bu uyda payg'ambar alayhissalomning o'zlari so'zlayotgandeklar», — deb yozgan.

Hozirda at-Termiziyning Termizdag'i qabri muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan.

## **AT-TERMIZIY TO'PLAGAN HADISLARDAN NAMUNALAR**

Adashgan kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishing ham — sadaqa.

Hatto kambag'allarga xushmuomalada bo'lishing ham — sening sadaqang.

Ikki narsa borki, ko'pchilik ularni qadriga yetmaydi: biri — sog'liq, ikkinchisi bo'sh vaqt.

Kimda-kim bir ko'chat o'tqazsa, yo bo'lmasa ekin eksa-yu, ular hosilidan odamlar,

qushlar va hayvonlar bahra olsa, bu ham o'sha odam uchun sadaqa hisoblanadi.

Qarindosh-urug'lar bilan aloqani uzgan kishi jannatga dohil bo'lmas.



1. At-Termizi bobomiz kim?
2. At-Termizi qanday kitoblar yozgan ekan?
3. Hadislarni yod oling.



### Amaliy topshiriq

#### Quyidagi savol va topshiriqlar ustida o'ylab ko'ring

- biror kishini ranjitgan kuningizni eslang. Sababi nima edi? So'ng kechirim so'raganmisiz?
- kayfiyattingiz yomon paytlarda ham atrofdagi kishilarga yaxshi muomala qila olasizmi?
- ko'cha-ko'yda kishilarning bir-biriga qilayotgan qanday muomalalari sizga yoqmaydi? Siz ularning ornida bo'l-sangiz, nima qilgan bo'lardingiz?
- nimalar qilsangiz, ustozingiz xursand bo'ladi? Ularni ko'proq quvontirishga intiling.
- farzandlar ota-onalar roziligi uchun nimalar qilishi kerak deb o'ylaysiz?
- ota-onalarining eng quvonchli kunlarini eslang. Bu quvonchning sababi nima edi?

## O'ZBEK MILLIY O'YINLARI

### HARAKATLI O'YINLAR

Siz dam olish va bo'sh vaqtлaringizda o'yinlar o'ynaysiz. Garchi ular bir qarashda juda sodda, jo'n gap-so'zlar, harakatlardan iborat bo'lsa-da, har bir o'yin sizning hushyor, aqlli, rostgo'y, do'stga sodiq, chaqqon, sog'lom va kuchli bo'lib o'sishingizda juda muhim ahamiyatga egadir.

Qadim zamonda Yuz qabilasida Zebixon degan go'zal qiz uchtadan to'ptoshni olib, beshga bo'lib o'ynagan ekan. U shunchalik chaqqon, harakatchan ekanki, nayzabozlik va tortishmachoqda zo'r o'yinlar ko'rsatar ekan. Zebixon «Uchtasi to'ptosh» o'yiniga bag'ishlab, baytlar ham bitgan ekan. Bu o'yinni asosan qizlar o'ynagan.

Botmon-botmon,  
To'ptosh-botmon,

Botmon-nechta,  
Botmon — beshta.

Bundan tashqari,  
Zebixon o'rtoqlari bilan «Ter gulim — terma gulim», «Xolakam», «Mehmon-mehmon» o'yinlarini ham o'ynagan ekan.

O'yin paytida u juda ham xushmuomala, zehnli bo'lgan, o'rtoqlarini ham shunga undagan. Negaki, o'yinda arazlash, so'kinish, bairish odobdan bo'lmagan.

Xalqimizda qadim-qadimlardan juda ko'p harakatli o'yinlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari hozirgacha saqlanib qolgan va bu o'yinlar bolalar tomonidan sevib o'ynaladi.

Harakatli o'yinlarda biror predmet (o'yinchoq, tosh, ro'molcha, yong'oq, tayoq) yoki so'z (lapar, aytishuv, tez aytishuv) asosiy hal qiluvchi manba hisoblanadi. Ular o'yin davomida boshqaruvchi vosita vazifasini bajaradi. «Chillak» o'yinida chillakdasta va chillak, «Danak yashirish» o'yinida danak harakatni boshqaruvchi predmet hisoblanadi.

«Oq terakmi — ko'k terak?», «Mehmonmisiz?» va boshqa talay o'yinlarda so'z, qo'shiq harakatni boshqargan.

«Mehmonmisiz?» o'yinida ikkita qiz bola qatnashadi. O'yin shartiga ko'ra, bиринчи qiz ikkala qo'li kaftlarini ochgan holda o'rtog'i tomon uzatib turadi. Ikkinchisi esa:






Tog'da lola	Qo'li belda.
Bir qiz bola.	Voy qo'lim-ey
Ko'chaga chiqing.	Voy belim-ey,
Bir qiz keldi.	Omonmisiz, esonmisiz?
Sochi mayda,	Bugun bizga
	mehmonmisiz? —

deb, tugatgan zahoti chaqqonlik bilan dugo-nasining kaftlariga o'z kaftlarini urib qochadi. Shunda uning qo'lini dugonasi tuta olsa yoki belgilangan marragacha quvganida o'rtog'iga yeta olsa, o'yin galini olib, endi u qo'shiqni takrorlashi lozim bo'ladi. Bordi-yu, tutolmasa, yana o'zi qo'lini cho'zganicha ochib turaveradi.

«Danak yashirish» o'yinida bitta bola qo'liga sig'gancha danak oladi va bolalarga qarab, «Chantak, chatmantak, danagim nechta?» deydi. Bolalardan har biri o'z mo'ljalini aytadi. Keyin danak yashirgan bola qo'lini



ochadi va danaklarni yerga to'kib soladi. Kim danak sonini to'g'ri topgan bo'lsa, hamma danakni oladi. Kam aytgan ham, ortiq aytgan ham farqini danak bilan to'laydi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

- Oq terakmi, ko'k terak.
  - Bizdan sizga kim kerak?
  - Sayrab turgan qiz kerak!
  - Qizlarning qaysi biri?
  - Gulandomdir o'tkiri.
- O'ynab-o'ynab kuylaymiz,  
Kuylab-kuylab o'ynaymiz.
- Oq terakmi, ko'k terak,
  - Bizdan sizga kim kerak?
  - So'zi erkin o'ziday
  - Erkin qo'zichoq kerak!



— Ola-bula kapalak,  
— Maqtanchoq Malik kerak!  
— Orqa sochi jamalak,  
— Dono qiz Chechak kerak!  
— Oq terakmi, ko'k terak,  
— Bizdan sizga kim kerak?  
— Mehnatsevar, charchamas  
— Xayri qizaloq kerak!



1. Nima uchun bolalar o'yin o'ynaydilar?
2. Zebixon qanday o'yinlar o'ynagan ekan?
3. Qaysi o'yin turlari sizga yoqdi? Nima uchun?
4. O'zingiz qanday o'yinlarni bilasiz?
5. Bobo-buvilaringiz, ota-onalarilingizdan xotiralarida qolgan o'yinlarini so'rab-surishtiring va bilib oling.



## MA'NAVIY O'YINLAR

Ma'naviy o'yinlarda so'zning o'zi asosiy rol o'ynaydi. Bunda so'zga zehnni jamlash, so'z ohangini his qilish, so'zda yashiringan ma'noni topish, undagi tovushlar uyg'unligini ilg'ash mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. «Guldur-gup», «Tez aytish», «Sanama», «Chandish», «Topishmoqlar» shunday xususiyatlarga ega.

«Guldur-gup» bolalar orasida keng tarqalgan ma'naviy o'yin. U bolalar oldiga gapirmaslik, jim turishlik shartini qo'yadi. Kim bu shartni buzsa o'yindan chiqadi.

Dim-dim, dim.  
O'ra ko'mdim.

Gapirganning og'ziga  
Bir shapaloq urdim.

O'raka sichqon tushdi  
Guldur-gup.

«Tez aytishlar» yordamida bolalar ona tilimizdagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlarning ohang-dorligini his qilishni mashq qiladilar.

Qishda kishmish pishmasmish,  
Pishsa kishmish qishmasmish.

\* \* \*

Oq ot oq o't yeydi,  
Ko'k ot ko'k o't yeydi.

\* \* \*

Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?

«Chandish» o'yinida laqillatish hisobiga sherigini hushyorlikka, hozirjavoblikka chor-lanadi.

- Iroda degin.
- Iroda.
- Yo'l yuraver piyoda.
- Murch degin.
- Murch.
- Shimirib ich.

- Rauf degin.
- Rauf.
- Charchadim, uf.

Aldanmachoq — chandishlar onaboshi va o'nlab o'yin ishtirokchilarining she'riy savol-javobi shaklida bo'lishi ham mumkin.

- Bo'ri uzum yeydimi?
- Bo'ri qo'zi yeydi.
- Tulki sovuq yeydimi?
- Tulki tovuq yeydi.
- Balli!
- Bulbul cho'lda sayrarmi?
- Bulbul bog'da sayraydi.
- Burgut suvda suzarmi?
- Burgut tog'da uchadi.
- Balli!

Bunday chandishlarni istagancha aytish mumkin, ularga chandishmoq marrasi birinchi adashuvgachadir. «Ilon uzum yeydi» javobi ana shunday adashuv marrasi bo'lib, «Ahmoq shunday deydi», — chandishining o'zidir.



1. Ma'naviy o'yinlar turiga qaysi o'yinlar kiritilar ekan?
2. Ma'naviy o'yinlarning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Siz shunday o'yinlarni bilib oldingiz. Ularni o'rtoqlaringiz bilan o'ynab ko'ring.
4. Kelgusi darsda «Men sevib o'ynaydigan o'yinlar?» mavzusida ijodiy yozma ish yozish uchun tayyorgarlik ko'rib keling.



## **DONOLAR O'GITLARI**

### **YUSUF XOS HOJIB BOBOMIZ**

Yusuf Xos Hojib 1020-yili Bolosog'unda ziyoli oilada dunyoga keldi. Bolosog'un Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, hunarmand-chilik, ilm-fan ancha taraqqiy etgan, ko'plab maktab-madrasalarga ega bo'lgan shahar edi.

Yusuf ana shu madaniyat o'chog'ida voyaga yetdi, arab, forsiy tillarni va adabiyotlarni o'rgandi. Falsafa, mantiq, matematika va boshqa bilimlarni mukammal egalladi. Davlat ishlarini idora qilish qoidalari bilan qiziqdi.

U 1069-yili «Qutadg'u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim») asarini Bolosog'unda yoza boshlaydi, 1070-yili Qashqarda tugatib, hokim Bug'roxonga taqdim etadi.

Kitob Bug'roxonga ma'qul bo'ladi va u Yusufga «Xos Hojib» unvonini beradi. Shundan boshlab Yusuf Xos Hojib deb atay boshlaysilar. Xos Hojib — Ulug' Hojib, ya'ni mashhur olim degani.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy tilda yaratilgan, inson tarbiyasiga bag'ishlangan ilk doston va nasihatnomadir.

Asar 73 bobdan iborat bo'lib, unda axloq-odob, ilm-ma'rifat, jamoat joylarida o'zini qanday tutish, so'zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, inson ma'naviy ola-mining ko'p masalalari xususida fikr yuritilgan.



Shu asardan axloq-odobga doir ayrim namunalarni keltiramiz:

## **YAXSHI SO'Z HAQIDA**

Kishi ikki narsa bilan qarimaydi:  
Biri — ezgu xulqi, biri ezgu so'z.

## ILM OLİSH HAQIDA

Bolam tutsin desang donolik yo'lin,  
Kichiklikdan tegiz bilimga qo'lin.

\* \* \*

Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug',  
Shu ikkov ulug'lar kishini to'liq.

## EHTIYOTKORLIK HAQIDA

Shoshqaloqlik — barcha adashgan kishilar  
ishi,  
Ehtiyotkorlik — barcha ezqu kishilar ishi.

## TILNI EHTIYOT QILISH HAQIDA

Til arslon misli yotar qafasda,  
Bexabar boshini u yer nafasda.  
So'zingni tiyib yur, boshing yormasin,  
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

## YOMON ODATLAR HAQIDA

Suqlik bir dard erur, yo'q chora, emi,  
Uni tuzatolmas dunyo hakimi.

## KAMTARLIK HAQIDA

Gerdyma, ko'p — ortiq olqish olasan,  
Xasis bo'lma aslo, qarg'ish olasan.



1. Yusuf Xos Hojib kim?
2. Nima uchun unga «Xos Hojib» unvoni berilgan?
3. «Qutadg'u bilig» asari qanday asar?
4. Axloq-odob haqidagi hikmatlarni tushunib olishga harakat qiling.



## ALISHER NAVOIY HIKMATLARI

O'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'z asarlari bilan boyitdi. Alisher Navoiy o'zining asarlarida

baxt-saodat, osoyishtalik, tinchlik, obodonchilik, odob, mehr, ota-onani hurmatlashni hikmatlari orqali bizlarga nasihat qilganlar.

### **ALISHER NAVOIY HIKMATLARIDAN NAMUNALAR**

Boshni fido ayla, ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningga tilarsen fazo —  
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.

Tun-kuningga aylagali nur fosh.  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

\* \* \*

Tilga ixtiyorsiz,  
Elga e'tiborsiz.

\* \* \*

Yo'q hunari yolg'uz esa o'z kishi.  
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi.

\* \* \*

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim.  
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

\* \* \*

Befoya so'zni ko'p aytma,  
Foydali so'zni ko'p eshuturdan qaytma.

\* \* \*

Yomon bila yaxshi orasida ko'p farqdir.  
Ikki kemaning uchini tutgan g'arqdir.

\* \* \*

Izzat tilasang kam de.  
Sihat tilasang kam ye.

\* \* \*



Alisher Navoiy bobomiz hikmatlarini  
o'rganib, unga amal qiling!

## VOIZ KOSHIPIY BOBOMIZ

Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz al-Koshi-  
fiy Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrining  
Bayhaqi tumanida tug'ilgan. Bolalik va  
dastlabki tahsil yillarini o'z vatanida o'tkaz-  
gan. Bo'lajak donishmand Nishopur va  
Mashhad madrasalarida tahsil olgan. O'ta  
bilimdon, notiq, va'z aytuvchi bo'lgani uchun  
u Husayn Voiz Koshifiy nomi bilan shuh-  
rat qozongan. U 1468-yilda Hirotga kelib, ko'p  
yillar davomida Jomiy va Navoiyning mar-  
hamatidan bahramand bo'lgan. Hirot madaniy,

ilmiy, adabiy hayotining eng faol a'zosi bo'lgan Koshifiy 1505-yilda Hirotda vafot etgan.

Husayn Voiz Koshifiy notiqlik, adabiyotshunoslik, falsafa, tarix, insho bitish, hisob ilmi, o'ymakorlig-u dehqonchilik va axloqqa doir 30 dan ziyod asarlar yozgan. «Iskandar oynasi», «Anvori Suhayliy», «Javohirnama», «Risola dar ilmi a'dod» («Sonlar haqida risola»), «Ravzat us-shuhado» («Shahidlar bog'i») nomli asarlari Xuroson hamda Movarounnahrda maktab, madrasa ta'limini yaxshilashga xizmat qilgan. Bobomiz Voiz Koshifiy odob-axloqqa doir katta meros qoldirganlar.

### VOIZ KOSHIFIY HIKMATLARIDAN NAMUNALAR

**Muomala** — axloq ko'rki sanaladi.  
Muomala — insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasidir.

**G'iybatchilar** yomonlikni yaxshilik deb, yaxshilikni yomonlik deb ko'rsatadilar.

**Hasad** — bu yomon odat bo'lib, uni har qanday tayoq bilan ham yo'qotishning iloji bo'lmas.



1. Voiz Koshifiy kim?
2. U qanday asarlar yozgan?
3. Hikmatlarni yod oling.



## BULARGA AMAL QILING

### SO'Z ODOBI

So'zni donodan eshitib, nodonga tushuntirish lozim. To'g'ri so'z kishiga naf keltiradi. Kamgap odam bilimdon bo'ladi.

\* \* \*

So'zlashdan ko'ra eshitmoq afzal.

\* \* \*

Eshitish tufayli kishi dono bo'ladi.

\* \* \*

So'zlashdagi eng yaramas holat yolg'ondir. Rost so'z kishiga obro' keltiradi. So'zni kim oldin boshlashi, qancha gapirishining ham me'yori bor.

## **ODOB-AXLOQQQA OID TUSHUNCHALAR IZOHI**

**Adab** — axloq, tarbiya va uning me'yorlari.

**Adolat** — odilona va xolisona ish tutish, haqqoniylik, haqqoniyat, odillik.

**Afv** — kechirish, gunohkor odamga jazo berishdan kechish.

**Andisha** — ketini, oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza.

**Aql** — odamning bilish, fikr yuritish qobiliyati.

**Baxil** — birovga hech narsani ravo ko'rmay-digan, qizg'anchiq, xasis.

**Bozor** — tovar ayrboshlash, tovarning pulga, pulning tovarga aylanishi uchun zarur bo'lgan maskan.

**Burch** — ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, majburiyat.

**Farosat** — kishidagi tez va to'g'ri fahmlay olish qobiliyati, zakovat, did.

**Fazilat** — ijobiy xislat: yaxshi sifat yoki xususiyat.

**Haqorat** — qo'pol so'zlar bilan kishining obro'yiga, izzat-nafsiga tegish, so'kish.

**Hasadgo'y** — o'zidan boshqalarning muvafiqiyatini, ustunligini ko'ra olmaydigan, hasad qiluvchi.

**Ilm** — kishining o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajriba orqasida orttirgan bilimi.

**Insof** — adolat, vijdon amri bilan ish tutish tuyg‘usi, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to‘g‘rilik, vijdon.

**Iroda** — har qanday ishni bajarish, yuzaga chiqarish uchun kishida bo‘lgan matonat va qat’iyat.

**Istiqbol** — kelgusidagi hayot, kelajak.

**Iqtisodiyot** — xo‘jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o‘rganadigan fan.

**Kamsitish** — odamlarni o‘zidan past ko‘rib mensimaslik.

**Milliy g‘urur** — milliy iftixor.

**Minnat** — qilingan yaxshilikni yuzga solish yoki boshqalarga gapirib yurish.

**Savob** — odamlarga yordam berish, xayrli ishlarga qo‘l urish. Ona-tabiat yaratgan in’omlarni asrash va ularga g‘amxo‘rlik qilish.

**Saxiy** — boshqalardan hech narsasini aymaydigan, nimaniki ehson qilsa, qaytarib olishni o‘ylamaydigan odam. Bunday odamlarni xalqda ibrat bilan Hotamtoy deyiladi.

**Takabburlik** — kekkayish, dimog‘dorlik, o‘zini boshqalardan baland tutish.

**Tamagir** — birovdan o‘lja olishga, tama qilishga o‘rgangan, tama qiluvchi.

**Vatan** — ona-yurt.

**Vatan tuyg‘usi** — Vatanga sadoqat.

**Xushomadgo'y** — birovga xushomad qiluvchi, lagabardor.

**Yalqovlik** — ishlashni yoqtirmaslik, dangasalik.

**Yaxshilik** — xayrli ish, e兹gulik.

**Yomonlik** — axloqi, fe'l-atvori buzuq, yaramas odamning nojoya ishi.

**G'iyat** — birovni orqavorotdan yomonlab gapirish, fisq-fasod.

**Chaqimchilik** — kishining gapini birovga yetkazish, gap tashish.

---

## **MUNDARIJA**

Istiqbolimiz va istiqlolimiz asoschisi .....	3
Farovonlik bozordan boshlanadi.....	7

### **BOLALIK — BEG'UBORLIK**

Bolalik — beg'uborlik .....	10
Keksalik — donolik .....	15

### **TEJAMKORLIK — YAXSHI FAZILAT**

Tejog'lik ish — bejog'lik.....	21
Isrofgarchilik — yomon illat.....	24
Nonni isrof qilmaslik odobdandir .....	27

### **MEHNATDAN KELSA BOYLIK, TURMUSH BO'LAR CHIROYLIK**

Mehnatsevarlik — bebahо fazilat .....	33
Mehnat — mehnatning tagi rohat .....	37
Hunar — tunganmas javohir .....	41
Men kim bo'lmoqchiman? .....	44

### **ORASTALIK VA EHTIYOTKORLIK — INSON KO'RKI**

Orastalik — yaxshi odat .....	49
Ehtiyotkorlik — yaxshi fazilat.....	54

## **VATAN TUYG'USI**

Vatan tuyg'usi va milliy g'urur bilan yashagan bobolar .....	60
Xotira maydoni .....	64
Vatanimizdagi qadmiy obidalar .....	66

## **TABIAT — GO'ZALLIK RAMZI**

Tabiatni asrash — burchimiz .....	69
Bobur bobomiz yaratgan bog'lar .....	73

## **RIVOYATLARDAGI HIKMATLAR**

Xalq yaratgan rivoyatlar .....	76
O'lkamiz o'tmishi .....	80

## **HADISI SHARIF — ODOB-AXLOQ MANBAYI**

Muhammad Payg'ambar hadislari .....	84
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy .....	86
Abu Iso at-Termiziy .....	89

## **O'ZBEK MILLIY O'YINLARI**

Harakatli o'yinlar .....	92
Ma'naviy o'yinlar .....	96

## **DONOLAR O'GITLARI**

Yusuf Xos Hojib bobomiz .....	99
Alisher Navoiy hikmatlari .....	101
Voiz Koshifiy bobomiz .....	103
Odob-axloqqa oid tushunchalar izohi .....	106

OYSHA HASANBOYEVA, ADOLAT NE'MATOVA,  
MASHKURA TUROPOVA

### **ODOBNOMA**

**3-sinf uchun darslik**  
(5-nashri)

*(o'zbek tilida)*

Muharrir *S. Mirzaahmedova*  
Musawvir *G. Jirnov*  
Muqova rassomi va dizayner *M. Kalinin*  
Badiiy muharrir *X. Qutluqov*  
Tex. muharrir *T. Xaritonova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *F. Tugusheva*  
Musahhih *N. Umarova*

Bosishga ruxsat etildi. 09.08.07. Bichimi  $60 \times 90^1/_{16}$ . Ofset qog'oz. Kegli 14. «Pragmatika» garniturasida terilib, ofset usulida bosildi. Shartli b.t. 7,0. Nashr b.t. 6,1. 5000 nusxa. Buyurtma № 07-106. Bahosi 1900 s.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O'zbekiston» NMIU da chop etildi.  
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

**Hasanboyeva O.** va boshq.  
H 31 **Odobnoma:** 3-sinf uchun darslik. 5-nashri. — T.: «O'zbekiston»  
NMIU, 2007. — 112 bet.

ISBN 978-9943-01-050-5

**BBK51 ya 71**